

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi  
Ijroiya qo'mitasi Byurosining  
2020-yil 31-dekabrda  
№1 sonli qarori bilan  
TASDIQLANGAN



**FUTBOLCHILAR MAQOMI VA TRANSFERI  
BO'YICHA REGLAMENT**

**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

## I. KIRISH QOIDALARI

<b>1-modda.</b> Qo'llanish sohasi.....	6
--	---

## II. FUTBOLCHILAR MAQOMI

<b>2-modda.</b> Futbolchilar maqomi: havaskor futbolchilar va professional futbolchilar.....	6
<b>3-modda.</b> Havaskorlik maqomini tiklash.....	7
<b>4-modda.</b> Futbol faoliyatining to'xtatilishi.....	7

## III. FUTBOLCHILARNI RO'YXATDAN O'TKAZISH

<b>5-modda.</b> Ro'yxatdan o'tkazish.....	7
<b>5bis-modda.</b> Oraliq o'tish.....	8
<b>6-modda.</b> Ro'yxatdan o'tkazish davri.....	8
<b>7-modda.</b> Futbolchi pasporti.....	9
<b>8-modda.</b> Ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza berish.....	10
<b>9-modda.</b> Xalqaro transfer sertifikatini.....	10
<b>10-modda.</b> Professional futbolchini ijaraga berish shartlari.....	11
<b>11-modda.</b> Ro'yxatdan o'tkazilmagan futbolchilar.....	11
<b>12-modda.</b> Diskvalifikatsiyalar bo'yicha intizomiy sanksiyalar ijrosi.....	11
<b>12bis-modda.</b> Kreditorlardan qarzdorliklar.....	12

## IV. PROFESSIONAL FUTBOLCHILAR VA KLUBLAR O'RTASIDA SHARTNOMALAR BARQARORLIGINI KAFOLATLAYDIGAN CHORALAR

<b>13-modda.</b> Shartnomaning ustuvorligi va shartnomaga rioya qilish.....	13
<b>14-modda.</b> Futbolchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishning uzrli sabablari.....	13
<b>14bis-modda.</b> Qonuniy asos mavjud bo'lgan holatda to'lovlar bo'yicha qarzdorlik sababli shartnomaning bekor qilinishi.....	14
<b>15-modda.</b> Sport tamoyillari bilan bog'liq qonuniy asos mavjud holatda shartnomani bekor qilish.....	15
<b>16-modda.</b> Mavsum mobaynida shartnomani bekor qilishning taqiqlanishi.....	16
<b>17-modda.</b> Qonuniy asossiz shartnomani bekor qilish oqibatlari.....	16
<b>18-modda.</b> Professional futbolchilar va klublar o'rtasidagi shartnomalarga tegishli maxsus qoidalar.....	17

## V. UCHINCHI TOMONLAR TA'SIRI

<b>18bis-modda.</b> Uchinchi tomonning klubga ta'siri.....	18
<b>18ter-modda.</b> Uchinchi shaxslar tomonidan futbolchilarning iqtisodiy (mulk huquqlariga) huquqlariga egalik qilinishi.....	19

## VI. VOYAGA YETMAGAN FUTBOLCHILAR ISHTIROKIDAGI XALQARO TRANSFERLAR

<b>19-modda.</b> Voyaga yetmagan futbolchilar huquqlarini himoya qilish.....	19
<b>19bis-modda.</b> Akademiya/maktablar tomonidan voyaga yetmagan futbolchilarning ro'yxatdan o'tkazilishi va ular to'g'risida axborot (hisobot) taqdim etilishi.....	20

## **VII. MASHG'ULOT KOMPENSATSIYASI VA BIRDAMLIK MEXANIZMI**

<b>20-modda.</b> Mashg'ulot kompensatsiyasi.....	21
<b>21-modda.</b> Birdamlik mexanizmi.....	22

## **VIII. YURISDIKSIYA**

<b>22-modda.</b> FIFA vakolatlari.....	23
<b>23-modda.</b> Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita.....	23
<b>24-modda.</b> Nizolarni hal qilish palatasi.....	24
<b>25-modda.</b> Tartibot masalalari bo'yicha yo'riqnomalar.....	25

## **IX. YAKUNIY QOIDALAR**

<b>26-modda.</b> Vaqtinchalik choralar.....	26
<b>27-modda.</b> Reglamentda nazarda tutilmagan vaziyatlar.....	26
<b>28-modda.</b> Rasmiy tillar.....	26
<b>29-modda.</b> Kuchga kirishi.....	26

## **ILOVALAR**

<b>1-ilova.</b> Assotsiatsiyalar jamoalarida ishtirok etishi uchun futbolchilarni klub mashg'ulotlaridan ozod qilish tartibi.....	27
<b>2-ilova.</b> Fuqaroligi sababli bittadan ko'p Assotsiatsiyada ishtirok etish huquqiga ega futbolchilarning Assotsiatsiya jamoalarida o'ynash tartibi.....	30
<b>3-ilova.</b> Futbolchilarning bir Assotsiatsiyadan boshqasiga o'tishini boshqaruvchi ma'muriy tartibot.....	31
<b>4-ilova.</b> Mashg'ulot kompensatsiyasini to'lash tartibi.....	33
<b>5-ilova.</b> Birdamlik mexanizmi to'lovini aniqlash tartibi.....	38
<b>6-ilova.</b> O'zbekiston futbol klublari uchun "Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglament" ning alohida qoidalari.....	41
<b>7-ilova.</b> O'FAning metodik ko'rsatmalari.....	44

## ATAMALAR

**Sobiq Assotsiatsiya** – sobiq klub tegishli bo'lgan assotsiatsiya

**Sobiq klub** – futbolchi tark etayotgan jamoa

**Yangi Assotsiatsiya** – yangi klub tegishli bo'lgan assotsiatsiya

**Yangi klub** – futbolchi kelayotgan jamoa

**Rasmiy o'yinlar** – o'rtoqlik va sinov o'yinlaridan tashqari O'zbekiston Professional futbol ligasining "Musobaqalarni o'tkazish bo'yicha reglamenti"da sanab o'tilgan barcha musobaqalar

**Tashkillashtirilgan futbol** – FIFA, Konfederatsiyalar va Assotsiatsiyalar nazorati ostida o'tkaziladigan yoki ular tomonidan ma'qullangan musobaqalar doirasidagi futbol

**Kafolatlangan davr** – agar shartnoma sportchi 28 yoshga to'lgunga qadar tuzilgan bo'lsa, uch to'liq mavsum yoki yil mobaynidagi davr (shartnoma qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran qaysi biri birinchi boshlanishiga qarab). Agar shartnoma sportchi 28 yoshga to'lgandan so'ng tuzilgan bo'lsa, ushbu muddat ikki yilgacha yoki ikki to'liq mavsumgacha qisqaradi (shartnoma qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran qaysi biri birinchi boshlanishiga qarab)

**Professional shartnoma** – Professional futbol ligasi tomonidan o'tkaziladigan musobaqada ishtirok etuvchi futbol klubi va futbolchi o'rtasida imzolangan va ro'yxatdan o'tkazilgan mehnat shartnomasi

**Ro'yxatdan o'tkazish davri** – mazkur Reglamentning 6-moddasiga muvofiq tegishli Assotsiatsiya tomonidan belgilangan davr

**Mavsum** – tegishli milliy chempionatning birinchi rasmiy o'yini bilan boshlanadigan va uning oxirgi rasmiy o'yini bilan yakunlanadigan davr

**Mashg'ulot kompensatsiyasi** – 4-ilovaga muvofiq klub yosh futbolchini tarbiyalab voyaga yetkazgani uchun amalga oshiriladigan to'lov

**Voyaga yetmagan futbolchi** – 18 yoshga to'lmagan futbolchi

**Akademiya (maktab)** – uzoq muddatli maqsadi futbolchilarga kerakli mashg'ulot sharoitlari va infratuzilmani taqdim qilish, uzoq muddatli tayyorgarlikni ta'minlashdan iborat bo'lgan tashkilot yoki mustaqil yuridik tuzilma. Bunda asosan tayyorgarlik markazlari, mashg'ulot markazlari, futbol maktablari va yana boshqalar xususida so'z yuritiladi

**Transferlarni kuzatib borish tizimi** – asosiy maqsadi futbolchilarning xalqaro transferi jarayonini soddalashtirish, shuningdek, axborot shaffofligi va uning uzatilishini takomillashtirishdan iborat bo'lgan elektron axborot tizimi

**Futbol assotsiatsiyasining hududiy bo'linmalari (FAHB)** – O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining Nizomida belgilangan hududiy bo'linmalar

**Futbolchilarni pasportizatsiyasi bo'yicha PFLning ro'yxatdan o'tkazuvchi organi** – Professional klublarga yosh futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish jarayoni bilan bevosita shug'ullanadigan Professional futbol ligasi bo'limi

**Ro'yxatdan o'tkazish** – Futbolchi to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat yozma qayd tuzish dalolatnomasi. U quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim:

- ro'yxatdan o'tkazish boshlangan sana (shakli: kun/oy/yil);
- to'liq ism-sharifi (futbolchining ismi, familiyasi, otasining ismi);
- tug'ilgan sanasi, jinsi, millati va havaskor futbolchilik yoki professional futbolchilik maqomi;
- futbolchi o'ynaydigan klubning assotsiatsiyadagi ro'yxatga olingan nomi;
- ro'yxatdan o'tkazish vaqtida klub mashg'ulotlarining tasniflanishi.

**Bridj-transfer** – mavjud qonun-qoidalarini chetlab o'tish yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxslarni aldash maqsadida aynan bir futbolchining o'rtada yana bir klub uchun ro'yxatdan o'tishi bilan amalga oshirilgan milliy yoki xalqaro miqyosdagi ikkita ketma-ket transfer.

**Prorata** – mablag'larning proporsional taqsimlanishi.



Qo'shimcha savollar uchun FIFA maqomida "Tavsiflar" bo'limiga qarang. Jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu shartlar har ikki jinsga nisbatan joriy etiladi. Birlikda berilgan tavsiflar kerak joyda ko'plikda ham qo'llaniladi yoki aksincha.

**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

## I. KIRISH QOIDALARI

### 1-modda. Qo'llanish sohasi

**1.1.** Mazkur Reglament quyidagilarni belgilaydi:

- futbolchining maqomi va uning tartibli futbolda ishtirok etish huquqiga tegishli umumiy va majburiy qoidalar;
- 1-modda 3-bandiga muvofiq tarzda FIFA tomonidan tasdiqlanuvchi tegishli assotsiatsiya tomonidan chiqariladigan maxsus qarorlar orqali tartibga solinadigan futbolchining O'FA klublari o'rtasida bir klubdan boshqa klubga o'tish jarayoni;
- mazkur Reglamentda belgilangan qoidalarga muvofiq futbolchi va klub o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilish qoidalar;
- futbolchining mashg'ulotlari va uni o'qitish uchun investitsiya kiritayotgan klublarga kompensatsiya to'lash tizimi;
- futbolchilarni amaldagi tartib asosida ro'yxatdan o'tkazish mamlakatda elektron o'tish tizimi joriy etilguniga qadar majburiydir;
- futbolchini assotsiatsiya terma jamoasiga qo'yib yuborish jarayonini, shuningdek, FIFA Futbolchilar maqomi va ularning boshqa klublarga o'tish bo'yicha reglamentning 1-ilovasi qoidalariga muvofiq futbolchining ushbu jamoa uchun o'ynash huquqini tartibga soluvchi qoidalar.

**1.2.** FIFA Futbolchilarning maqomi va o'tishi bo'yicha reglamentning 2–8, 10, 11, 12bis, 18, 18bis, 18ter, 19 va 19bis-moddalari to'liq inobatga olingan va ushbu reglament tahririga kiritilgan.

**1.3.** Assotsiatsiya shartnoma munosabatlari barqarorligini himoyalash uchun mazkur Reglamentga amaldagi qonun hujjatlari va korporativ bitimlar shartlari bilan muvofiqlashtirilgan bandlarni kiritgan. Shundan kelib chiqib, quyida keltirilgan moddalarda aks etgan prinsiplarga alohida e'tibor qaratilgan: 13, 14, 15, 16 hamda 17-moddaning 1, 2, 3, 5-bandlari.

## II. FUTBOLCHILAR MAQOMI

### 2-modda. Futbolchilar maqomi: havaskor futbolchilar va professional futbolchilar

**2.1.** Tartibli futbolda ishtirok etayotgan futbolchilar havaskor yoki professional futbolchilar hisoblanadi.

**2.2.** Klub bilan yozma shartnomaga ega bo'lgan, futbolchilik faoliyatini boshlayotganda u uchun sarflangan kompensatsiyasidan kattaroq summa oladigan futbolchi professional futbolchi hisoblanadi. Boshqa barcha futbolchilar havaskor futbolchilar hisoblanadi.

### 3-modda. Havaskorlik maqomini tiklash

**3.1.** Professional sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan futbolchi professional futbolchi maqomida o'tkazgan so'nggi o'yinidan e'tiboran kamida 30 kun mobaynida havaskor futbolchi sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin emas.

**3.2.** Futbolchining havaskor maqomi tiklanishida hech qanday kompensatsiya to'lovi nazarda tutilmagan. Agar futbolchi havaskor maqomi tiklangan kundan e'tiboran 30 oy mobaynida professional futbolchi sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazilsa, 20-moddaga muvofiq uning yangi klubi mashg'ulot kompensatsiyasini to'lashi kerak.

#### **4-modda. Futbol faoliyatining to'xtatilishi**

**4.1.** Shartnomasi tugagandan so'ng o'z faoliyatini yakunlayotgan professional futbolchi va futbolchilik faoliyatini yakunlayotgan havaskor futbolchi 30 oy mobaynida o'zining so'nggi klubi safida O'zPFL ro'yxatidan o'tkazilgan shartnomani saqlab qolishi kerak.

**4.2.** Ushbu davr futbolchi o'z klubi uchun rasmiy o'yinda oxirgi marta ishtirok etgan kundan boshlanadi.

### **III. FUTBOLCHILARNI RO'YXATDAN O'TKAZISH**

#### **5-modda. Ro'yxatdan o'tkazish**

**5.1.** Futbolchi O'zPFLda 2-modda qoidalariga muvofiq professional futbolchi sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. O'zPFL ro'yxatidan o'tgan futbolchigina klub uchun professional futbolchi sifatida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. Ro'yxatdan o'tkazilgan futbolchi FIFA, OFK, O'FA va O'zPFL Reglamentlari hamda qarorlarini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

**5.2.** Hech bir futbolchi, murabbiy yoki futbol klubi xodimi bir vaqtning o'zida ikkita turli futbol klubida faoliyat yuritish uchun ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin emas.

**5.3.** Futbolchilar joriy yilning 1-yanvaridan 31-dekabrigacha davr mobaynida eng ko'pi bilan uchta klubda ketma-ket ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Ushbu davr mobaynida futbolchi rasmiy o'yinlarda faqat ikkita klub uchun ishtirok qilish huquqiga ega bo'ladi (uchrashuv qaydnomasiga kiritilgani ham hisobga o'tadi).

Ushbu qoidadan istisno sifatida kesishib o'tadigan mavsumlarga ega (masalan, mavsumning yoz/kuzda boshlanishi) assotsiatsiyalarga tegishli ikkita klub o'rtasida bir klubdan boshqa klubga o'tayotgan futbolchi oldingi klublari oldida o'z shartnoma majburiyatlarini to'liq bajargan sharoitda tegishli mavsum mobaynida uchinchi klub uchun rasmiy o'yinlarda qatnashishi mumkin. Shu bilan birga ro'yxatdan o'tkazish davrlariga tegishli (6-modda), shartnomaning minimal davomiyligiga tegishli (18-modda, 2-band) qoidalarga rioya qilinishi kerak.

**5.4.** Barcha holatlarda musobaqaning sport yaxlitligiga diqqat-e'tibor qaratilishi kerak. Shu jumladan, Reglamentning qat'iy qoidalariga bog'liq ravishda futbolchi bir mavsum mobaynida bitta milliy chempionatda yoki kubok musobaqalarida qatnashayotgan ikkita klubdan ko'proq klub uchun rasmiy o'yinlarda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, O'zPFLdan ro'yxatdan o'tgan futbolchi boshqa tashkilot tomonidan tashkillashtirilgan musobaqada ishtirok etuvchi klub safida ro'yxatdan o'tishi taqiqlanadi.

### **5bis-modda. Oraliq o'tish**

1. Hech bir klub yoki futbolchi bridj-transferda ishtirok etmasligi lozim.
2. Agar boshqa biror jihat ko'zda tutilmagan bo'lsa, aynan bir futbolchining o'rtada yana bir klub uchun ro'yxatdan o'tishi bilan amalga oshirilgan milliy yoki xalqaro miqyosdagi ikkita ketma-ket transfer 16 hafta ichida amalga oshirilsa, tomonlar (klublar va futbolchi) bridj-transferda ishtirok etgan, deb hisoblanadi.
3. FIFA nizomi va qoidalariga bo'ysunuvchi istalgan tomon agar bridj-transferda ishtirok etsa, unga nisbatan FIFA tartib-intizom qo'mitasi tomonidan FIFA tartib-intizom kodeksiga muvofiq sanksiya qo'llaniladi.

### **6-modda. Ro'yxatdan o'tkazish davri**

**6.1.** Futbolchi O'zPFL tomonidan yiliga ikki marta ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan davrlardan birida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Ushbu qoidadan istisno tariqasida ro'yxatdan o'tkazish davri yakunlangunga qadar shartnoma muddati tugagan yoki shartnomasi uzrli sabab bo'yicha tugagan professional futbolchi ushbu ro'yxatdan o'tkazish davridan tashqari ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Assotsiatsiya bunday professional futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazishga tegishli musobaqaning sport yaxlitligiga yetarlicha diqqat-e'tibor qaratish shartida ruxsat beradi. Agar shartnoma asoslangan sababga ko'ra bekor qilinsa, FIFA suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish maqsadida va 22-moddaga muvofiq vaqtinchalik choralar ko'rishi mumkin.



- i. Ushbu qoidalardan vaqtinchalik istisno tarzida, agar professional futbolchining shartnoma muddati COVID-19 tufayli tugasa yoki bekor qilinsa, ro'yxatdan o'tkazish davridan qat'i nazar istalgan vaqtda (shartnoma tugash muddati yoki bekor qilinish sanasidan qat'i nazar) ro'yxatdan o'tishi mumkin.

**6.2.** Birinchi ro'yxatdan o'tkazish davri mavsum tugagandan so'ng boshlanadi va odatda yangi mavsum boshlanishiga qadar yakunlanadi. Ushbu davr o'n ikki haftadan oshmaydi (yuqorida aytib o'tilgan vaqtinchalik istisnolardan tashqari, bu davr 12 haftadan oshmasligi lozim). Ikkinchi ro'yxatdan o'tkazish davri odatda

mavsumning o'rtasiga belgilanib, to'rt haftadan oshmaydi. Mavsum uchun belgilangan ro'yxatdan o'tkazishning ikki davri qonuniy kuchga kiringunga qadar kamida o'n ikki oy avval transferlarni tartibga solish tizimida (Xalqaro transfer sertifikat) qayd etiladi. Agar Assotsiatsiya ular haqida vaqtida ma'lumot bermasa, FIFA ro'yxatga olish muddati sanalarini aniqlash huquqiga ega

**6.3.** Futbolchilar, 6-moddaning 1-bandida nazarda tutilgan istisnoga muvofiq, ro'yxatdan o'tkazish davri mobaynida klub tomonidan ro'yxatdan o'tkazuvchi tashkilotga tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjat taqdim etilgandagina ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

**6.4.** Ro'yxatdan o'tkazish davrlariga taalluqli qoidalar faqat havaskor futbolchilar qatnashayotgan musobaqalarga qo'llanilmaydi. O'FA ushbu musobaqalar uchun davrlarni bevosita o'zi belgilaydi, ushbu davr mobaynida futbolchilar tegishli musobaqaning sport yaxlitligiga yetarlicha diqqat-e'tibor qaratish shartida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

### **7-modda. Futbolchi pasporti**

**7.1.** Klub futbolchini ilk marta professional sifatida ro'yxatdan o'tkazayotganda uni ro'yxatdan o'tkazayotgan PFL organiga ushbu futbolchi bo'yicha kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan futbolchi pasportini taqdim qilishi shart. Pasportda futbolchi 12 yoshga to'lgan mavsumdan boshlab u a'zo bo'lgan klublar (akademiya/maktab) qayd etilgan bo'lishi kerak.

**7.2.** Futbolchining tug'ilgan kuni mavsumlar orasiga to'g'ri kelsa, u tug'ilgan kundan keyin ro'yxatdan o'tkazgan klub futbolchi pasportida qayd etilishi lozim.

**7.3.** Futbolchi pasportining shakli O'FA tomonidan belgilangan talablarga mos kelishi lozim.

**7.4.** Futbolchi pasporti uning sport faoliyatidagi ma'lumotlari aks etadigan, mashg'ulot kompensatsiyasi hisoblanishida, birdamlik to'lovini hisoblash va taqsimlashda asos bo'lib xizmat qiladigan asosiy hujjat hisoblanadi. Futbolchi pasportidagi ma'lumotlar uni ro'yxatdan o'tkazish niyatidagi klub, akademiya/maktab tomonidan taqdim etilgan hujjatlar bilan mos kelishi shart.

**7.5.** Futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish va futbolchilarning pasportini yuritish jarayonini o'sha klub, akademiya/maktab joylashgan hududdagi Hududiy assotsiatsiya amalga oshiradi.

### **8-modda. Ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza berish**

Professional futbolchini ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza futbolchi shartnomasining nusxasi bilan birga taqdim etilishi kerak. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ o'z xohishiga qarab, shartnomaga har qanday tuzatishlarni yoki unga belgilangan tartibda taqdim qilinmagan qo'shimcha kelishuvlarni e'tiborga olishga haqli.

## **9-modda. Xalqaro transfer sertifikat**

**9.1.** Bitta Assotsiatsiyada ro'yxatdan o'tkazilgan futbolchi oldingi Assotsiatsiya tomonidan berilgan Xalqaro transfer sertifikat (keyingi o'rinlarda – XTS) olingandan keyingina yangi Assotsiatsiyada ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. XTS hech qanday shartlarsiz va vaqt bo'yicha cheklanishlarsiz bepul beriladi (9-moddaning 5-bandida keltirilgan hujjatlar bundan mustasno). Aks holatdagi har qanday talablar haqiqiy emas deb hisoblanadi. XTS topshiradigan Assotsiatsiya uning nusxasini FIFAga yuborishi kerak. XTS topshirilishi bo'yicha ma'muriy tartibotlar mazkur Reglamentning 3-ilovasida keltirilgan.

**9.2.** Assotsiatsiyalar futbolchining nazorat o'yinlarida qatnashish uchun XTS talab qilishga haqli emas.

**9.3.** Yangi Assotsiatsiya futbolchini 12 yoshdan 23 yoshgacha (7-modda – "Futbolchi pasporti") tarbiyalagan va tayyorlagan klub/akademiyam/ maktab Assotsiatsiyasini futbolchi XTS olgandan so'ng professional futbolchi sifatida ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi.

**9.4.** 12 yoshga to'lmagan futbolchi uchun XTS talab qilinmaydi.

**9.5.** XTS rasmiy talab qilinishi uchun kerakli hujjatlar:

- futbolchining fuqarolik pasporti (skanerlangan nusxasi/kserokopiyasi);
- amaldagi shartnoma doirasida futbolchining maoshi va unga to'lanadigan boshqa to'lovlar qayd etilgan va O'zPFLda ro'yxatdan o'tkazilgan shartnoma (skanerlangan nusxasi/kserokopiyasi);
- futbolchi mehnat shartnomasining amal qilish muddati tugagandan so'ng buni tasdiqlovchi hujjat: shartnoma tugaydigan sana ko'rsatilgan shartnoma nusxasi yoki klubdan tasdiqlovchi xat taqdim qilinishi kerak. Futbolchining mehnat shartnomasi muddatdan oldin bekor qilingan taqdirda, har ikki tomon roziligi bo'yicha shartnomaning muddatdan oldin bekor qilinganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilinishi lozim;
- futbolchi 12 yoshga to'lgan kalendar yildan boshlab u ro'yxatdan o'tkazilgan futbol klublari to'g'risidagi xronologik axborotni o'z ichiga oladigan futbolchi pasporti.

## **10-modda. Professional futbolchini ijaraga berish shartlari**

**10.1.** Professional futbolchi uning o'zi va manfaatdor klublar o'rtasidagi yozma bitim asosida boshqa klubga ijaraga berilishi mumkin. Bu kabi istalgan ijar shartnomasi futbolchilarning boshqa klubga o'tish, shu jumladan, mashg'ulot kompensatsiyasi to'lovlari va birdamlik mexanizmi shartlarining yagona qoidalari bilan tartibga solinadi.

**10.2.** 5-moddaning 3-bandiga muvofiq ijaraning minimal davri bir ro'yxatdan o'tkazish davridan boshqa ro'yxatdan o'tkazish davrigacha bo'lgan oraliq vaqtni tashkil etadi.

**10.3.** Futbolchini ijara shartlarida qabul qilayotgan klub futbolchini ijaraga bergan klubning va bevosita manfaatdor futbolchining yozma ruxsatisiz uni uchinchi klubga topshirishga haqli emas.

### **11-modda. Ro'yxatdan o'tkazilmagan futbolchilar**

O'zPFL tomonidan ro'yxatdan o'tkazilmagan futbolchining klub uchun O'zPFL bayrog'i ostida tashkil etiladigan musobaqalar doirasidan o'rin olgan rasmiy o'yindagi har qanday ishtiroki noqonuniy hisoblanadi. Bunday ishtirokning sport oqibatlarini tuzatishga qaratilgan har qanday choralar uchun zararsiz sanksiyalar futbolchiga va/yoki klubga nisbatan qo'llanishi mumkin. Bunday sanksiyalarni qo'llash huquqi asosan O'FA yoki tegishli musobaqa tashkilotchisiga tegishlidir.

### **12-modda. Diskvalifikatsiya bo'yicha intizomiy sanksiyalar ijrosi**

**12.1.** Futbolchiga uning oldingi assotsiatsiyasi tomonidan 4 ta uchrashuvgacha yoki 3 oylik muddatgacha diskvalifikatsiya borasida intizomiy sanksiya qo'llanilgan bo'lsa-yu, biroq uning ijro muddati transferni amalga oshirish paytiga kelib tugamagan bo'lsa, ushbu sanksiya futbolchini ro'yxatdan o'tkazgan yangi Assotsiatsiya tomonidan ham ichki musobaqalarda ijro etilishi kerak.

XTS topshirishda oldingi assotsiatsiya muddati tugamagan har qanday intizomiy sanksiya to'g'risida yangi Assotsiatsiyani transferlarni muvofiqlashtirish tizimi (TMS FIFA) orqali xabardor qilishi kerak (shuningdek, havaskor futbolchi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan futbolchi uchun ham).

**12.2.** Futbolchi 4 ta o'yin yoki 3 oydan ko'proq muddatli intizomiy sanksiyani o'tab ulgurmagan bo'lsa va FIFA Intizom qo'mitasi ushbu sanksiya ijrosini barcha Assotsiatsiyalar uchun majburiy deb topsa, futbolchini ro'yxatdan o'tkazgan yangi Assotsiatsiya jazoni ijro etishi kerak.

Qo'shimchasiga, XTS berishda oldingi assotsiatsiya muddati o'talmagan har qanday intizomiy sanksiya to'g'risida yangi Assotsiatsiyani xabardor qilishi kerak. Bunda professional futbolchi maqomida ro'yxatdan o'tkazilgan futbolchilar to'g'risida transferlarni muvofiqlashtirish tizimi orqali, havaskor futbolchi maqomida ro'yxatdan o'tkazilgan futbolchilar to'g'risida esa xat orqali ma'lumot beriladi.

### **12bis-modda. Kreditorlardan qarzdorliklar**

1. Klub futbolchilar va boshqa klublar oldidagi, shuningdek, professional futbolchilar bilan imzolangan shartnomalar va transfer kelishuvlarida ko'rsatilgan shartlarga muvofiq, o'z moliyaviy majburiyatlariga rioya qilishi lozim.

2. Shartnoma bo'yicha to'lovlarni asossiz ravishda 30 kalendar kunidan ortiq muddat davomida kechiktirayotgan istalgan klubga shu moddaning 4-bandida sanab o'tilgan sanksiyalar qo'llanilishi mumkin.

3. Ushbu moddaga ko'ra, klubni qarzdor sifatida ko'rib chiqish maqsadida kreditor (futbolchi yoki klub) qarzdor klubni yozma ravishda xabardor qilib, o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarishi uchun kamida 10 kun muhlat taqdim etishi lozim.

4. Futbolchilar maqomi va o'tishi bo'yicha qo'mita, Nizolarni hal qilish palatasi (NHP), yagona hakam yoki NHP hakami o'zining tegishli yurisdiksiyasi doirasida (22, 23, 24-moddalar) quyidagi sanksiyalarni qo'llashi mumkin:

a) ogohlantirish;

b) hayfsan;

c) jarima;

d) keyingi bir yoki ikki ro'yxatdan o'tkazishning to'liq davrlarida milliy yoki xalqaro miqyosda yangi futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazishni taqiqlash.

5. Mazkur 4-bandda ko'zda tutilgan sanksiyalar birgalikda qo'llanilishi ham mumkin.

6. Moliyaviy majburiyatlarning takroriy buzilishi og'irlashtiruvchi holat sifatida ko'rib, yanada og'irroq jazo choralari ko'rilishiga sabab bo'lishi mumkin.

7. Ro'yxatga olishni taqiqlashning ijrosi to'xtatib turilishi mumkin. Ro'yxatga olishni taqiqlashni to'xtatib turib, qaror qabul qiluvchi organ sanksiyaga tortilgan klubga 2 oydan ikki yilgacha sinov muddati taqdim etadi.

8. Agar ro'yxatga olishni taqiqlash ijrosi to'xtatilgan sinov davrida ham shu klub boshqa huquqbuzarlikka yo'l qo'ysa, taqiqlashni to'xtatib turish avtomatik tarzda bekor qilinadi, shuningdek, yangi huquqbuzarlik uchun qo'shimcha sanksiya ham belgilanadi.

9. Agar kontrakt munosabatlari bir tomonlama bekor qilinsa, ushbu modda shartlari 17-moddaga muvofiq qo'llaniladigan keyingi choralarga ta'sir qilmasligi kerak.

#### **IV. PROFESSIONAL FUTBOLCHILAR VA KLUBLAR O'RTASIDA SHARTNOMALAR BARQARORLIGINI KAFOLATLAYDIGAN CHORALAR**

##### **13-modda. Shartnomaning ustuvorligi va shartnomaga rioya qilish**

**13.1.** Professional futbol klubi va professional futbolchi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi odatda futbol mavsumi davomida muddatidan oldin bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur Reglament hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan holatlar bundan mustasno.

**13.2.** Professional futbolchi hamda futbol klubi o'rtasidagi amaldagi mehnat shartnomasi kompensatsiya to'lovizsiz bekor qilinishi mumkin va/yoki mehnat shartnomasi muddati tugaganidan so'ng sport sanksiyalari qo'llangan tarzda, shuningdek, taraflarning kelishuviga ko'ra, yoki tomonlarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli, bundan tashqari, mazkur Reglament hamda O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligida belgilangan holatlar bo'yicha ham bekor qilinishi mumkin.

**13.3.** Professional futbolchi hamda futbol klubi o'rtasidagi amaldagi mehnat shartnomasi mazkur Reglamentda nazarda tutilgan yetarli asoslar mavjud bo'lganda taraflardan birining tashabbusi bilan hech bir oqibatlersiz bekor qilinishi mumkin. Agar mehnat shartnomasi uzrli sabablarsiz bekor qilinsa, u holda qoida buzuvchi tomon ikkinchi tomonga ko'rsatilgan holatlar bo'yicha mazkur Reglamentda qayd etilgan hisoblash tartibida kompensatsiya to'lab berish majburiyatini oladi.

#### **14-modda. Futbolchining tashabbusi bilan uzrli sabablarga ko'ra shartnomaning bekor qilinishi**

**14.1.** Mazkur modda futbolchidan tashqari murabbiy hamda futbol mutaxassislariga ham tegishlidir.

**14.2.** Futbolchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasining uzrli sababga ko'ra bekor qilinishi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) professional futbol klubi tomonidan mehnat shartnomasi va/yoki ichki mehnat tartib-qoidalari, boshqa lokal me'yoriy hujjatlarning qo'pol ravishda buzilishi;

b) futbol klubining musobaqa ishtirokchilari safidan chiqarilishi;

c) mazkur Reglament asosida futbolchining havaskorlik maqomi tiklanishi.

**14.3.** Quyidagilar mehnat shartnomasi va/yoki ichki mehnat tartib-qoidalari, boshqa lokal me'yoriy hujjatlarning qo'pol ravishda buzilishi hisoblanadi:

a) futbol klubi futbolchiga oylik maoshini berishi lozim bo'lgan kundan 30 kalendar kun o'tgan holatida klub tomonidan futbolchiga to'lanishi lozim bo'lgan oylik ish haqi va/yoki har oy beriladigan boshqa ko'rinisdagi to'lovlarlarning umumiy yig'indisi kamida 2 oylik ish haqi miqdoricha qarzdorligi bo'lsa;

b) olgan jarohati hamda boshqa kasallik natijasida mehnatga layoqatsiz bo'lmagan, shuningdek, futbol bilan bog'liq har qanday faoliyatdan chetlashtirilmagan yoki boshqa klubga ijara shartnomasi asosida o'tkazilmagan 18 yoshga to'lgan futbolchining klubga tegishli minimum bitta jamoadan ro'yxatdan o'tkazilmaganda;

c) musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida klub jamoalari mashg'ulotlaridan asossiz ravishda yakkalash orqali (agar tibbiy xulosa asosida mehnatga layoqatsiz hisoblanmasa)

futbolchining/murabiylarning/mutaxassislarning huquqlari buzilganda (shu klubning boshqa futbolchilariga nisbatan diskriminatsiyalanganda);

d) Nizolarni hal qilish palatasi tarafidan mehnatga haq to'lash bo'yicha va/yoki boshqa ko'rinishdagi to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjud deb chiqarilgan qaror ijrosi klub tomonidan belgilangan muddatda bajarilmaganda;

e) professional futbol klubi tomonidan qo'pol ravishda yo'l qo'yilgan boshqa turdagi qoidabuzish holatlari (qoidabuzishlar yig'indisi).

#### **14bis-modda. Qonuniy asos mavjud bo'lgan holatda to'lovlar bo'yicha qarzdorlik sababli shartnomaning bekor qilinishi**

1. Agar klub qonunga xilof tarzda futbolchiga kamida 2 oylik ish haqini tegishli sanalarda to'lamasa, u holda futbolchi shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunda futbolchi qarzdor klubni yozma ravishda xabardor qilib, shu klub o'z moliyaviy majburiyatlarini to'liq bajarishi uchun 15 kalendar kun muddat taqdim etishi kerak bo'ladi. Ushbu qoidani qo'llash vaqtida shartnomalardagi boshqa holatlar e'tiborga olinishi mumkin.

2. Oylik maoshdan boshqa to'lovlarga nisbatan ham 14bis-moddaning 1-bandidagi holatni qo'llash mumkin. Bunda mazkur to'lovlarning umumiy summasi futbolchining ikki oylik mehnat haqidan kam bo'lmasligi kerak.

3. Ish beruvchining vakillari va ishchilar o'rtasidagi jamoaviy kelishuvlar milliy qonunchilikka muvofiq tuzilgan bo'lsa, shu moddaning 1 va 2-bandlarida keltirilgan prinsiplardan farqlanishi mumkin. Bunda kelishuv shartlari ustuvor kuchga ega hisoblanadi.

#### **15-modda. Sport tamoyillari bilan bog'liq qonuniy asos mavjud holatda shartnomani bekor qilish**

15.1. Mavsum davomida professional futbol klubining asosiy tarkibida 10 foizdan kam rasmiy o'yinda maydonga tushgan professional futbolchi mazkur moddada ko'rsatib o'tilgan qoidalardan kelib chiqib, shartnomani muddatidan avval bekor qilishni talab qilishga haqli.

15.2. Mazkur moddaning 1-bandida ko'rsatilgan 10 foiz hisobi professional futbol klub asosiy jamoasining ichki hamda xalqaro musobaqalarda ishtirok etgani va/yoki shu klubning ikkinchi raqamli jamoasidagi o'yinlari orqali olinadi.

15.3. Mazkur modda quyidagi holatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

a) 21 yoshga to'lib ulgurmagan futbolchiga nisbatan;

b) professional futbol klubi tarkibida joriy mavsum uchun darvozabon sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan futbolchiga nisbatan;

c) agar futbolchi rasmiy futbol uchashuvlarida maydonga 10 foizdan kamroq holatda quyida ko'rsatilgan holatlar sabab chiqarilgan bo'lsa:

- olgan jarohatlari yoki orttirib olgan kasalligi natijasida vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz bo'lganligi;
- 1 oydan ko'proq muddatli sport diskvalifikatsiyasi yoki futbol faoliyati bilan shug'ullanishga oid taqiqlar bo'lganida;
- boshqa futbol klubiga ijaraga berilganida.

**15.4.** Professional futbolchi jamoa bilan mehnat shartnomasini shu modda asosida muddatidan oldin bekor qilishni istasa, sport asoslarini aniqlash uchun mazkur jamoa tarkibidagi so'nggi rasmiy uchrashuvdan 15 kalendar kun o'tib, Nizolarni hal qilish palatasiga murojaat etishi kerak.

Professional futbolchi tomonidan belgilangan muddat buzilsa, uning mehnat shartnomasi shu modda shartlari asosida bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, shuningdek, professional futbolchiga nisbatan sport sanksiyalari qo'llanilishi mumkin.

**15.5.** Professional futbolchi mehnat shartnomasini mazkur moddaga muvofiq bekor qilsa, unga nisbatan sport sanksiyalari qo'llanilmaydi. Ammo Nizolarni hal qilish palatasi qarori bilan shartnomaning muddatidan avval bekor qilinishi uchun kompensatsiya belgilanishi mumkin.

**15.6.** Nizolarni hal qilish palatasi mehnat shartnomasini bekor qilish uchun sababning bor yoki yo'qligi borasida har bir holat uchun alohida qaror chiqaradi.

### **16-modda. Mavsum mobaynida shartnomani bekor qilishning taqiqlanishi**

Shartnoma mavsum mobaynida bir tomonlama tartibda bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **17-modda. Qonuniy asossiz shartnomani bekor qilish oqibatlarini**

Quyidagi qoidalar shartnoma qonuniy asossiz bekor qilingan holatda qo'llanadi:

**17.1.** Barcha holatlarda shartnomani buzgan tomon kompensatsiya to'laydi. To'lov mezonlari o'z ichiga pul mukofotlari va mavjud shartnomada ko'rsatilgan boshqa to'lovlarni va/yoki yangi shartnomada ko'rsatilgan boshqa to'lovlarni amalga oshirish shartlarini, mavjud shartnomaning amal qilish muddati yakunigacha qolgan ko'pi bilan besh yilgacha muddatni, eski klub tomonidan to'langan to'lovlar yoki xarajatlarni (shartnoma muddati mobaynida amortizatsiyalanadi) va kafolatlangan davr mobaynida shartnoma shartlari bilan bog'liq shartlarning buzilishi yoki buzilmagani kabi holatlarni o'z ichiga olishi kerak.

**17.2.** Kompensatsiya uchun huquq uchinchi tomonga berilishi mumkin emas. Agar professional futbolchi kompensatsiya to'lashi kerak bo'lsa, professional futbolchi va uning yangi klubi ushbu to'lov uchun birgalikda javobgar bo'ladi. Kompensatsiya miqdori shartnomada ko'rsatilishi yoki tomonlar vakillari ushbu miqdor xususida o'zaro kelishib olishlari mumkin.

**17.3.** Kompensatsiya to'lash majburiyatiga qo'shimcha ravishda, kafolatlangan davr mobaynida shartnoma shartlari buzilganligi uchun javobgar deb topilgan futbolchiga nisbatan sport sanksiyalari ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, sanksiya futbolchining rasmiy uchrashuvlarda 4 oygacha muddat davomida ishtirok etishini taqiqlashdan iborat bo'lishi mumkin. Og'irlashtiruvchi vaziyatlar mavjud bo'lsa, taqiqlash 6 oylik muddatgacha uzaytirilishi mumkin. Sport sanksiyasi futbolchi tegishli qaror to'g'risida xabardor qilingandan so'ng darhol qonuniy kuchga kiradi. Sport sanksiyalari mavsumning so'nggi rasmiy uchrashuvi va navbatdagi mavsum, shu jumladan, milliy kuboklar va xalqaro klub musobaqalarining birinchi rasmiy o'yini o'rtasidagi davrda to'xtatib qo'yiladi. Sport sanksiyalarining bu kabi to'xtatib qo'yilishi, agar futbolchi o'z assotsiatsiyasining milliy jamoasi a'zosi bo'lsa, ushbu assotsiatsiya mavsumning so'nggi rasmiy uchrashuvi va navbatdagi mavsumning birinchi rasmiy uchrashuvi o'rtasidagi davr mobaynida xalqaro musobaqaning final o'yinida ishtirok qilgan holatdagina qo'llaniladi. Himoyalangan davrdan so'ng shartnomaning uzrli sabablarsiz bir tomonlama bekor qilinishi sport sanksiyalarini qo'llashga olib kelmaydi. Shunga qaramay, himoyalangan davrdan tashqari, futbolchi shartnomaning amal qilish muddatini to'xtatishi uchun o'zi ro'yxatdan o'tgan klubga mavsumning so'nggi rasmiy o'yinidan keyin 15 kalendar kuni ichida bildirish xatini yuborishi va 15 kalendar kun kutishi kerak, yo'qsa unga intizomiy sanksiyalar qo'llanishi mumkin. Shartnoma tiklanib, shartnomaning amal qilish muddati uzaytirilsa, himoyalangan davr qaytadan boshlanadi.

**17.4.** Kompensatsiya to'lash majburiyatiga qo'shimcha ravishda, kafolatlangan davr mobaynida shartnoma shartlari buzilganligi uchun javobgar deb topilgan yoki shartnoma shartlari buzilishiga ta'sir ko'rsatgan har qanday klubga nisbatan sport sanksiyalari qo'llanishi kerak. Agar ushbu holatga nisbatan hech qanday zid shartlar belgilanmagan bo'lsa, shunday qaror qabul qilinishi kerakki, qonuniy shartnomani asossiz bekor qilgan professional futbolchi bilan shartnoma imzolayotgan har qanday klub professional futbolchini shartnoma munosabatlarini buzishga rag'batlantirayotgan bo'ladi. Klubga ikkita to'liq va ketma-ket ro'yxatdan o'tkazish davrida (ham milliy miqyosda, ham xalqaro miqyosda) har qanday yangi futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish taqiqlab qo'yiladi. Bunda futbol klubiga professional shartnoma imzolab ulgurmagan o'z akademiyasi/maktabi tarbiyalanuvchisi bilan yoki shu hududdagi boshqa futbol akademiyasi/maktabi tarbiyalanuvchisi bilan imzolangan shartnomani ro'yxatdan o'tkazishga ruxsat beriladi.

Klub taalluqli sport sanksiyasining amal qilish muddati tugagandan keyingi navbatdagi davr boshidagina ham milliy miqyosda, ham xalqaro miqyosda yangi futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazishga haqli bo'ladi. Shu jumladan, klub ertaroq bosqichda futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun mazkur Reglamentning 6-moddasi 1-bandida qayd etilgan istisnolar va vaqtinchalik choralardan foydalanish huquqiga ega emas.

**17.5.** FIFA, OFK, O'FA, O'zPFL Ustavlari va Reglamentlari yurisdiksiyasida bo'lgan, futbolchining boshqa klubga o'tishini yengillashtirish maqsadida professional futbolchi va klub o'rtasida futbolchini shartnoma munosabatlarini buzishga rag'batlantirishga urinayotgan har qanday shaxs (klublar vakillari, agentlar, futbolchilar va h.k.) jazolanadi.

### **18-modda. Professional futbolchilar va klublar o'rtasidagi shartnomalarga tegishli maxsus qoidalar**

**18.1.** Shartnoma tuzish vaqtida vositachi jalb qilinsa, ushbu mehnat shartnomasida vositachining ismi va familiyasi ko'rsatilgan belgi qayd etilishi, uning pasporti kserokopiyasi, vositachilik to'g'risida Deklaratsiya va futbolchi (trener, shifokor, massajist) va/yoki klub vakili ekanini tasdiqlovchi shartnoma taqdim qilinishi kerak.

**18.2.** Shartnomaning minimal davomiyligi shartnoma qonuniy kuchga kiritiladigan paytdan mavsum oxirigacha bo'lgan muddatga teng bo'lishi kerak. Shartnomaning maksimal davomiyligi – 5 yil. 18 yoshga to'lmagan futbolchi uch yildan ko'proq muddatga professional shartnomani imzolashga haqli emas. Uzoqroq muddatlarga tegishli har qanday shartlar tan olinmaydi.

**18.3.** 16 yoshga to'lgan shaxslar bilan mehnat shartnomasi tuzilishiga yo'l qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi bilan belgilangan holatlar bundan mustasno. Futbolchi tomonidan majburiy umumiy ta'lim olingan yoki qonunga muvofiq u tomondan umumta'lim muassasasidagi o'qishdan bo'sh vaqtida bajarish sharti bilan 15 yoshga to'lgan shaxslar mehnat shartnomasini tuzishlari mumkin. Ayrim holatlarda o'quvchi hisoblangan va 14 yoshga to'lgan futbolchi bilan o'qishdan bo'sh vaqtda uning sog'lig'iga zarar yetkazmaydigan yengil mehnatni bajarish sharti bilan o'quv jarayonini buzmaydigan mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin. 18 yoshgacha futbolchilarning mehnat shartnomalari ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan imzolanishi shart.

**18.4.** Professional futbolchi bilan shartnoma tuzmoqchi bo'lgan klub ushbu professional futbolchi bilan muzokaralarga kirishishdan oldin uning joriy klubini yozma ravishda xabardor qilishi kerak. Professional futbolchi joriy klubi bilan shartnomaning amal qilish muddati tugagan yoki 6 oy mobaynida tugaydigan sharoitdagina yangi shartnoma tuzishi mumkin. Ushbu qoidaning har qanday buzilishi tegishli sanksiyalar qo'llanishiga olib kelishi mumkin.

**18.5.** Shartnomaning amal qilish muddati tibbiy komissiya xulosasining ijobiy bo'lishiga va/yoki ishlashga ruxsatnoma olinishiga bog'liq bo'lishi mumkin emas.

**18.6.** Agar professional futbolchi bir davrning o'zida bittadan ko'proq shartnoma tuzgan bo'lsa, 4-bobda ko'zda tutilgan qoidalar qo'llanishi lozim.

### **18bis-modda. Uchinchi tomonlarning klublarga ta'siri**

1. Hech bir klub klub/kontragent klublarga yoki har qanday boshqa uchinchi shaxsga mehnat va transfer munosabatlariga, o'z mustaqilligiga, siyosatiga yoki o'z jamoasi uchun ishtirok etishiga ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi shartnoma tuzmasligi kerak.

2. FIFA Intizom qo'mitasi mazkur moddada qayd etilgan talablarga rioya qilmaydigan klubga nisbatan intizomiy sanksiyalar qo'llashi mumkin.

### **18ter-modda. Uchinchi shaxslar tomonidan futbolchilarning iqtisodiy (mulk huquqlariga) huquqlariga egalik qilinishi**

Hech bir klub yoki futbolchi uchinchi shaxslar bilan shartnomaning amal qilishi doirasida uchinchi shaxslar futbolchining kelgusi transferida kompensatsiya to'lanishiga to'liq yoki qisman ta'sir ko'rsatishi yoxud uchinchi shaxslarga kelgusi transfer yoki transfer kompensatsiyasi yuzasidan har qanday huquqlarni berishi mumkin bo'lgan shartnoma munosabatlariga kirishmasligi kerak.

Ushbu moddaning 1-bandida ko'rsatilgan taqiq 2015-yil 1-maydan kuchga kiradi. 1-bandda nazarda tutilgan va 2015-yil 1-mayga qadar tuzilgan shartnomalar unda belgilangan muddatga qadar amalda bo'ladi. Bunday shartnomalar uzaytirilishi mumkin emas.

Ushbu moddaning 1-bandida nazarda tutilgan, 2015-yil 1-yanvardan 2015-yil 30-aprelga qadar tuzilgan shartnomalarning amal qilish muddati u imzolangan sanadan boshlab 1 yildan oshmasligi lozim.

Ushbu moddaning 1-bandida nazarda tutilgan, 2015-yil aprel oyi oxiriga qadar mavjud bo'lgan amaldagi shartnomalar Transferlarni kuzatib borish tizimi (TMS)ga kiritilishi lozim. Shunday shartnoma tuzgan barcha klublar shartnomalarni to'liq tarzda TMSga kiritishi shart. Bunda ehtimoliy o'zgartirishlar, tegishli uchinchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, futbolchining ism-familiya-sharifi, shartnomaning amal qilish muddati ko'rsatilishi lozim.

FIFA Intizom qo'mitasi mazkur moddada qayd etilgan talablarga rioya qilmaydigan klubga nisbatan intizomiy sanksiyalar qo'llashi mumkin.

## **VI. VOYAGA YETMAGAN FUTBOLCHILAR ISHTIROKIDAGI XALQARO TRANSFERLAR**

### **19-modda. Voyaga yetmagan futbolchilar huquqlarini himoya qilish**

**19.1.** Futbolchilarning xalqaro transferlari ular 18 yoshga to'lganidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

**19.2.** O'FA futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha quyidagi harakatlarga ruxsat beradi:

a) Ushbu Reglamentning 7-ilovasiga muvofiq bo'lgan metodik ko'rsatmalarda nazarda tutilgan voyaga yetmagan futbolchi ishtirokidagi xalqaro transfer;

b) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan voyaga yetmagan futbolchining ilk marta ro'yxatdan o'tkazilishi.

**19.3.** Futbol klubini birinchi marta ro'yxatdan o'tkazish yoki voyaga yetmagan futbolchi ishtirokidagi xalqaro transferga ruxsat berish bo'yicha arizasi ushbu Reglamentning 7-ilovasiga muvofiq bo'lgan metodik ko'rsatmalarda nazarda tutilgan holatlarga mos ekanini tasdiqlovchi hujjatlar bilan birgalikda O'FAga taqdim etilishi lozim. Ariza O'FA tomonidan faqatgina zarur hujjatlar hamda ularning davlat tiliga tarjimai to'liq tarzda taqdim etilganidan keyin ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda O'FA qo'shimcha hujjatlar talab qilishga haqli.

**19.4.** O'FA tomonidan ruxsat berilganidan so'ng shu moddaning 19.2-bandi «a» punktida ko'rsatilganidek futbol klubi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan voyaga yetmagan futbolchini musobaqa uchun ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ega bo'ladi. Bunda faqat (FIFAning Futbolchilarning maqomi va o'tishi bo'yicha Reglamenti qonun-qoidalariga mos ravishda) XTS olinishi va ushbu holat o'sha musobaqa Reglamentiga zid bo'lmasligi lozim.

**19.5.** O'FA tomonidan ruxsat berilganidan so'ng shu moddaning 19.2-bandi «b» punktida ko'rsatilganidek, futbol klubi voyaga yetmagan futbolchini musobaqa uchun ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ega bo'ladi. Bunda faqat ushbu holat o'sha musobaqa Reglamentiga zid bo'lmasligi lozim.

Futbolchining kelgusidagi ro'yxatdan o'tishi, xalqaro transferi yoki ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq ruxsat berilgan ilk ro'yxatdan o'tishi faqat professional futbol klubi yoxud professional futbol klubining maktabi tomonidan O'FAdan qayta ruxsat olinganidan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Mazkur qoidaga amal qilmaslik aybdor shaxslarga nisbatan chora qo'llashga sabab bo'ladi.

**19.6.** Ushbu qoidadan istisno bo'lishi uchun futbolchining ota-onasi futbol bilan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yangi klub joylashgan mamlakatga ko'chib kelishi kerak.

**19.7.** Mazkur modda shartlari bundan avval hech qanday klubda ro'yxatdan o'tkazilmagan va mamlakat fuqarosi bo'lmay turib, birinchi marta ro'yxatdan o'tishni xohlagan futbolchilarga ham tegishlidir.

**19.8.** O'FA ushbu qoidalar o'z klublari tomonidan buzilmasligini kafolatlaydi.

**19.9.** Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita yuzaga keladigan barcha munozarali masalalar bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish va ushbu qoidalar buzilgan taqdirda tegishli sanksiyalar qo'llash vakolatiga ega bo'lishi lozim.

**19bis-modda. Akademiya/maktablar tomonidan voyaga yetmagan futbolchilarning ro'yxatdan o'tkazilishi va ular to'g'risida axborot (hisobot) taqdim etilishi**

1. Klub bilan yuridik, moliyaviy yoki de fakto munosabatlarga ega akademiya boshqaruvchi klublar, barcha voyaga yetmagan futbolchilari to'g'risida akademiya faoliyat olib boradigan hududdagi assotsiatsiyaga tegishli axborot taqdim etishi lozim.

2. O'FA klub bilan yuridik, moliyaviy yoki de fakto munosabatlarga ega bo'lmagan:

a) tegishli milliy chempionatlarda qatnashayotgan biror-bir klub tomonidan boshqarilayotganiga ishonch hosil qilishi kerak. Bunda barcha futbolchilar klubda ro'yxatdan o'tkazilishlari va akademiya o'z faoliyatini amalga oshiradigan hududdagi assotsiatsiyaga a'zolik ro'yxatiga kiritilishi yoki

b) o'qish maqsadida akademiya qatnaydigan barcha voyaga yetmagan futbolchilar to'g'risida akademiya faoliyat yuritayotgan hududdagi assotsiatsiyaga tegishli axborot taqdim etishi lozim.

3. Assotsiatsiya va uning hududiy bo'linmalari klublar yoki akademiya ma'lum qilgan barcha voyaga yetmagan futbolchilar hisobini (ism-shariflari, tug'ilgan sanalari) yuritishi kerak.

4. Assotsiatsiyani xabardor qilish orqali akademiya va futbolchilar FIFA Ustaviga muvofiq futbol faoliyati bilan shug'ullanish, tartibli futbolning odob-axloq tamoyillarini hurmat qilish va rivojlantirish majburiyatini qabul qiladilar.

5. FIFAning Intizom kodeksiga muvofiq ushbu qoidaning har qanday buzilishlari Intizom qo'mitasi tomonida sanksiyalar qo'llanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

6. 19-modda mamlakat fuqarolari bo'lmay turib, ro'yxatga olinishini xohlagan barcha voyaga yetmagan futbolchilar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishiga nisbatan ham qo'llanadi.

## VII. MASHG'ULOT KOMPENSATSIYASI VA BIRDAMLIK MEXANIZMI

### 20-modda. Mashg'ulot kompensatsiyasi

20.1. Mashg'ulot kompensatsiyasi futbolchi professional futbolchi sifatida o'zining birinchi shartnomasini imzolayotganda va professional futbolchi mavsum oxirigacha 23 yoshgacha bo'lgan har bir transferida uni tayyorlagan klubga to'lanishi kerak.

20.2. Ushbu Reglamentga muvofiq mashg'ulot kompensatsiya puli olish huquqiga faqatgina uni tarbiyalash jarayonida ishtirok etgan hamda futbolchi pasportiga kiritilgan futbol klubi/akademiya/maktabgina egadir.

20.3. Futbol klubi/akademiya/maktabi mashg'ulot kompensatsiyasi pulini olish huquqini boshqa shaxslarga bera olmaydi.

20.4. Futbol klubi/akademiya/maktab toifasi, har bir toifa koeffitsienti, mashg'ulot kompensatsiya pulini hisoblash tartibi mazkur Reglamentning 4- ilovasida belgilangan.

**20.5.** Mashg'ulot kompensatsiyasi puli birinchi klub va futbolchi pasportiga muvofiq u tahsil olgan klub/akademiya/maktab o'rtasida tuzilgan kompensatsiya to'lovlari to'g'risidagi shartnoma asosida majburiy ravishda to'lanadi.

**20.6.** Kompensatsiya to'lovlari to'g'risidagi shartnomaning namunaviy shakli qo'llash uchun majburiydir. Kompensatsiya to'lovlari to'g'risidagi shartnomani tomonlar ushbu Reglamentga zid bo'lmagan qoidalar bilan to'ldirishga haqlidirlar.

**20.7.** Mashg'ulot kompensatsiyasi puli miqdori yuzasidan kelib chiqadigan nizolar Nizolarni hal etish palatasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

**20.8.** Futbolchi professional, yarim professional, havaskorlar yoki ayollar professional klubi bilan ilk bor mehnat shartnomasini imzolaganda, mashg'ulot kompensatsiyasi puli va uni to'lash muddati bilan bog'liq har qanday nizo futbolchining professional sport faoliyatiga ta'sir qilmasligi lozim.

**20.9.** Mashg'ulot kompensatsiyasi pulini to'lash muddatiga amal qilinmagan taqdirda tegishli futbol klubga nisbatan sport sanksiyalari qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, mashg'ulot kompensatsiyasi pulini to'lash muddatidan kechikkan professional futbol klub, agar kompensatsiya to'lovlari to'g'risidagi shartnomada bu borada boshqa qo'shimcha shartlar ko'rsatib o'tilmagan bo'lsa, futbolchini tarbiyalagan klub/akademiya/maktabga Nizolarni hal etish palatasi qarori asosida jarima to'laydi.

**20.10.** Mazkur Reglamentning 18 hamda 21-moddalarida, shuningdek 4 va 5-illovalarida belgilangan boshqa shartlar inobatga olingan holatda, futbolchining sobiq klubi agar u bilan mehnat shartnomasi tuzgan professional futbol klub bo'lsa-yu, ammo kompensatsiya to'lash bo'yicha birinchi klub bo'lmasa, bunday holatda futbolchining yangi klubi kompensatsiya to'laydigan birinchi klub hisoblanib, kompensatsiya to'lash bo'yicha birinchi klub bo'lmagan professional futbol klub yangi klub tomonidan mazkur moddada ko'rsatilgan kompensatsiya turlaridan faqat bittasini to'lashni talab qilishga haqlidir.

**20.11.** Kompensatsiya pulini to'lash majburiyati, agar futbolchining boshqa klubga o'tishi uning amaldagi shartnomasi davrida yoki uning tugashiga to'g'ri kelganida paydo bo'ladi. Mashg'ulot kompensatsiyasini belgilaydigan me'yorlar ushbu Reglamentning 4-illovasida keltirilgan.

### **21-modda. Birdamlik mexanizmi**

Agar professional futbolchi shartnomasining amal qilish muddati tugaguncha boshqa klubga o'tsa, ushbu professional futbolchining oldingi klubiga to'lanadigan kompensatsiyaning bir qismi uni tayyorlash uchun mablag' sarflagan har qanday klubga taqsimlanishi kerak (birdamlik to'lovi). Birdamlik to'loviga tegishli qoidalar mazkur Reglamentning 5-illovasida keltirilgan.

## **VIII. YURISDIKSIYA**

### **22-modda. FIFA vakolatlari**

Har qanday futbolchi yoki klub huquqiga putur yetkazmasdan turib ishga yollash masalalari bo'yicha sud tartibida kompensatsiya talab qilish.

FIFA vakolatida quyidagilar qoladi:

a) agar XTS uchun rasmiy talab bo'lsa va agar manfaatdor tomonlarning biridan ushbu XTSning berilishi yuzasidan, sport sanksiyalari yuzasidan yoki shartnoma buzilganligi uchun kompensatsiyalar yuzasidan shikoyat taqdim etilgan bo'lsa, futbolchilar va klublar o'rtasida shartnomaga so'zsiz rioya qilishni kafolatlaydigan choralar bilan bog'liq masalalar bo'yicha yuzaga keladigan da'volarni hal qilish (13–18-moddalar).

b) agar milliy miqyosdagi assotsiatsiya doirasida va/yoki jamoaviy shartnoma doirasida ishlarning adolatli ko'rib chiqilishini hamda futbolchilar va klublarning teng vakillik prinsipi hurmat qilinishini ta'minlaydigan mustaqil hakamlik sudi tashkil qilinmagan bo'lsa, futbolchi va klub o'rtasidagi, shuningdek, xalqaro ko'lamga ega ishga yollash bilan bog'liq da'volarni hal qilish.

c) agar milliy miqyosda ishlarning adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlaydigan mustaqil hakamlik sudi tashkil qilinmagan bo'lsa, klub yoki assotsiatsiya va murabbiy o'rtasida xalqaro ko'lamga ega ishga yollash bilan bog'liq da'volarni hal qilish.

d) turli assotsiatsiyalarning klublari o'rtasida futbolchilarni tayyorlash (20-modda) va birdamlik mexanizmi (21-modda) uchun kompensatsiya bilan bog'liq da'volar.

e) bir assotsiatsiyaga tegishli klublar o'rtasida birdamlik mexanizmi (21-modda) yuzasidan da'volar, da'volashuv asosini tashkil qilgan futbolchi transferi turli assotsiatsiyalarga tegishli klublar tomonidan amalga oshiriladigan sharoitda.

f) turli assotsiatsiya klublari o'rtasida 22-moddaning a, b va e kichik bandlarida nazarda tutilgan holatlarga tegishli bo'lmagan da'volar.

### **23-modda. Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita**

**23.1.** Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita 22-moddaning c va f kichik bandlariga muvofiq barcha da'vo va nizolarni, shuningdek 24-modda qoidalariga rioya qilish shartida mazkur reglament qo'llanishidan kelib chiqadigan barcha boshqa da'vo va nizolarni hal qiladi.

**23.2.** Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita yoki da'vo va nizolarni hal qilish palatasi vakolatlari yuzasidan shubhalar paydo bo'lgan holatda, qaysi organ tegishli yurisdiksiyaga ega ekanligi to'g'risidagi qaror Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita raisi tomonidan qabul qilinadi.

**23.3.** Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita da'vo va nizolarni, agar ish xususiyati ularni yakka tartibda sudya tomonidan hal qilish imkonini bermasa, ushbu qo'mitaning kamida uch a'zosi, shu jumladan, rais yoki uning o'rinbosari ishtirokida hal qiladi. Shoshilinch holatlarda yoki hech qanday murakkab amaliy

yoki huquqiy masalalar ko'tarilmagan holatlarda, shuningdek, 3-ilovaga muvofiq, xalqaro ko'lamga ega ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq futbolchilarni vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazish yuzasidan qaror qabul qilishda, qo'mita raisi yoki uning tomonidan tayinlangan qo'mita a'zosi hisoblangan shaxs yakka tartibda sudya sifatida ish bo'yicha qaror chiqarishi mumkin. Ishni ko'rib chiqish vaqtida tomonlarning har biri bir martadan tinglanadi. Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita tomonidan yakka tartibda qabul qilingan qarorlar ustidan Apellyatsiya qo'mitasiga, shuningdek, Sport arbitraj sudi (CAS)ga shikoyat arizasi berilishi mumkin.

#### **24-modda. Nizolarni hal qilish palatasi**

**24.1.** Nizolarni hal qilish palatasi 22-moddaning a, b, d va e kichik bandlariga muvofiq barcha da'vo va nizolarni hal qiladi, XTS topshirish bo'yicha da'volar bundan mustasno.

**24.2.** Nizolarni hal qilish palatasi da'vo va nizolarni, agar ish xususiyati ularni yakka tartibda sudya tomonidan hal qilish imkonini bermasa, ushbu qo'mitaning kamida uch a'zosi, shu jumladan rais yoki uning o'rinbosari ishtirokida hal qiladi. Palata a'zosi klub uchun bir nafar va futbolchilar uchun o'z tarkibidan bir nafar Palata hakamini tayinlaydi. Palata hakami quyidagi holatlarda qaror qabul qilishi mumkin:

a) da'vo summasi 100 000 000 (yuz million) so'mdan oshmaydigan barcha da'volar;

b) o'z mohiyatiga ko'ra amaliy yoki yuridik jihatdan qiyinchiliklar yaratmaydigan yoki Nizolarni hal qilish palatasi ko'rilayotgan da'vo bo'yicha aniq va barqaror yechimlarga ega bo'lgan tayyorgarlik uchun kompensatsiyalar hisob-kitobi bilan bog'liq barcha da'volar;

c) o'z mohiyatiga ko'ra amaliy yoki yuridik jihatdan qiyinchiliklar yaratmaydigan yoki Nizolarni hal qilish palatasi ko'rilayotgan da'vo bo'yicha aniq va barqaror yechimlarga ega birdamlik badali hisob-kitobi bilan bog'liq barcha da'volar.

Palata hakami asosiy masalalarga tegishli barcha ishlarni palataga o'tkazishi shart. Palata klublar va futbolchilar vakillarining teng sonidan tashkil topadi, Palata hakami tomonidan hal qilinishi mumkin bo'lgan holatlar bundan mustasno.

Ishni ko'rib chiqish vaqtida tomonlarning har biri bir martadan tinglanadi. Nizolarni hal qilish palatasi yoki Palata hakami tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan Apellyatsiya qo'mitasiga hamda Sport arbitraj sudiga (CAS) shikoyat arizasi kiritish mumkin.

#### **25-modda. Tartibot masalalari bo'yicha yo'riqnomalar**

**25.1.** Odatda yakka tartibdagi hakam va Palata hakami asoslangan iltimosnomani olgandan so'ng 30 kalendar kuni ichida, Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita yoki Nizolarni hal qilish palatasi esa 60 kalendar kun ichida qaror qabul qilishi kerak. Ishni ko'rib chiqishda FIFA tomonidan nazarda tutilgan umumiy qoidalar qo'llanadi.

**25.2.** Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita, shu jumladan yakka tartibdagi hakam, Nizolarni hal qilish palatasi, Palata hakami tomonidan tayyorgarlik uchun kompensatsiya va birdamlik to'lovi yuzasidan ishni ko'rib chiqish miqdori O'FAning tegishli qarori asosida belgilanadi va odatda mag'lub tomon bu miqdorni to'laydi. Xarajatlar taqsimlanishi qarorda izohlanadi. Nizolarni hal qilish palatasida Palata hakami tomonidan klublar va futbolchilar o'rtasida shartnoma barqarorligini ta'minlash yuzasidan nizolar, shuningdek, xalqaro miqyosdagi klub va futbolchi o'rtasida ishga joylashish yuzasidan nizolar bo'yicha ishlarning ko'rib chiqilishi bepul amalga oshiriladi.

**25.3.** Mazkur Reglament buzilganligi uchun intizomiy ishlarni ko'rib chiqish – agar Reglamentda boshqa holat qayd etilmagan bo'lsa, FIFA Intizom kodeksiga muvofiq bo'lishi kerak.

**25.4.** Agar biror-bir ish intizomiy masalalarni yuzaga keltirayotganini taxmin qilish uchun asoslar bo'lsa, Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita, Nizolarni hal qilish palatasi, yakka tartibdagi hakam yoki Palata hakami (vaziyatlarga bog'liq ravishda) materiallarni, FIFA Intizom kodeksiga muvofiq, intizom bo'yicha ish ko'rib chiqilishini boshlash iltimosnomasi bilan birga Intizom qo'mitasiga taqdim etadi.

**25.5.** Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita, Nizolarni hal qilish palatasi, yakka tartibdagi hakam yoki Palata hakami (vaziyatlarga bog'liq ravishda), agar nizolarni keltirib chiqqan hodisa sodir bo'lgan paytdan e'tiboran ikki yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa, mazkur Reglament bo'yicha hech qanday ishni ko'rib chiqishga haqli emas. Bunday chegaraviy muddatni belgilash to'g'risidagi masala tegishli mansabdor shaxs tomonidan har bir holat uchun alohida ko'rib chiqiladi.

**25.6.** Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita, Nizolarni hal qilish palatasi, yakka tartibdagi hakam yoki Palata hakami tomonidan (vaziyatlarga bog'liq ravishda), mazkur Reglamentni barcha tegishli shartnomalar, qonunlar va/yoki milliy miqyosda mavjud jamoaviy shartnomalar hisobga olgan hamda sportning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda qo'llanadi.

**25.7.** Mazkur Reglament qo'llanishi bilan bog'liq paydo bo'ladigan nizolarni hal qilishning batafsil tartiboti FIFA umumiy tartibot qoidalarida keltiriladi.

## **IX. YAKUNIY QOIDALAR**

### **26-modda. Vaqtinchalik choralar**

**26.1.** Mazkur Reglament tahriri O'FA Ijroqo'mi tomonidan tasdiqlanganiga qadar 2021 yilning 1 yanvaridan vaqtincha kuchga kiradi.

**26.2.** Mazkur Reglamentga kiritilgan o'zgarishlar O'FA Ijroqo'mi tomonidan belgilangan kundan boshlab rasman kuchga kiradi hamda Ijroqo'm qarori bilan vaqtinchalik amalda bo'lgan davr uchun ham tegishli bo'ladi.

**26.3.** Mazkur Reglamentda ko'rsatib o'tilgan klublar va akademiya/maktablar uchun belgilangan mashg'ulot kompensatsiyasi hisoblashda O'FA tomonidan futbol akademiyalari/maktablarini attestatsiyadan o'tkazish nizomi amaliyotga joriy etilmagunga qadar to'xtatib turiladi (2021 yilgi holat bundan mustasno).

### **27-modda. Reglamentda nazarda tutilmagan vaziyatlar**

Mazkur Reglamentda nazarda tutilmagan masalalar, shuningdek, fors-major vaziyatlar FIFA Ijroiya qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi va uning qarori yakuniy hisoblanadi.

### **28-modda. Rasmiy tillar**

Mazkur Reglamentning matnlarini talqin qilishda har qanday farq aniqlangan holatda ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

O'z navbatida O'zbekiston hududida O'FA hujjatlarni o'zbek va rus tillarida yuritadi.

### **29-modda. Kuchga kirish**

O'FA Ijroqo'mi yoki Ijroqo'm byurosi tomonidan 2020 yil 31 dekabrda tasdiqlangan va 2021 yil 4 yanvar kuni kuchga kirgan.

# UZBEKISTAN PROFESSIONAL FOOTBALL LEAGUE

## **1-ilova:**

### **ASSOTSIATSIYALAR JAMOALARIDA ISHTIROK ETISHI UCHUN FUTBOLCHILARNI JAMOA MASHG'ULOTLARIDAN OZOD QILISH TARTIBI**

#### **1-bob. Prinsiplar**

**1.1.** Klublar o'zlarida ro'yxatga olingan futbolchilarni, ular tegishli mamlakat fuqarosi sifatida mamlakat terma jamoalari safida o'ynash huquqiga ega bo'lgani uchun tegishli Milliy Assotsiatsiyaning chaqirig'iga muvofiq, ikki turli Assotsiatsiya vakili hisoblangan terma jamoalar o'rtasidagi xalqaro uchrashuvda ishtirok etishi uchun qo'yib yuborishi lozim. Futbolchi va klub o'rtasida ushbu bandga zid bo'lgan istalgan kelishuvlar taqiqlanadi.

**1.2.** Ushbu moddaning 1-bandidagi shartlar bo'yicha futbolchilarni qo'yib yuborish sanasi FIFAning xalqaro uchrashuvlar rasmiy kalendarida qayd etilgan uchrashuvlar va FIFA Ijroiya Qo'mitasining alohida qarorlariga asosan futbolchilarni qo'yib yuborilishi shart hisoblangan boshqa uchrashuvlar uchun majburiydir.

**1.3.** FIFAning xalqaro uchrashuvlar rasmiy kalendarida qayd etilmagan uchrashuvlar uchun futbolchilarni qo'yib yuborish majburiy emas.

**1.4.** Shuningdek, futbolchilar uchrashuv oldi tayyorgarlik davri uchun quyidagi tartibda ozod etilishi lozim:

a) o'rtoqlik uchrashuvlariga: 48 soat.

b) xalqaro turnirlarning saralash uchrashuvlari uchun:

to'rt kun (uchrashuv kuni bilan hisoblaganda). Agar uchrashuv futbolchi ro'yxatdan o'tkazilgan klub Assotsiatsiyasidan farqlanuvchi Assotsiatsiyada o'tkazilsa, ushbu muddat besh kunga uzaytiriladi;

agar uchrashuvlarning kelishilgan xalqaro kalendarida ikki sana (juma-seshanba) keltirilgan bo'lsa, ozod etish davri barcha holatlarda kalendarida ko'rsatilgan davr boshlanishidan 5 kun avval (juma kuni bilan hisoblaganda) qilib belgilanadi.

c) avvaldan o'rtoqlik uchrashuvlari uchun belgilangan, biroq keyinchalik saralash uchrashuvlari va xalqaro turnirlar o'yinlariga o'zgargan kunlar uchun: 48 soat.

d) Xalqaro turnirning final uchrashuvlari uchun: tegishli musobaqaning ochilish uchrashuvidan oldin 14 kun.

Futbolchilar Assotsiatsiya jamoasiga uchrashuv boshlanishidan kamida 48 soat avval qo'shilishi lozim.

**1.5.** FIFA Jahon chempionati yoki "A" toifasiga mansub terma jamoalar uchun qit'a chempionatining final bosqichiga avtomatik tarzda o'tgan Assotsiatsiyalarda ro'yxatga olingan futbolchilar rasmiy saralash uchrashuvlari uchun rejalashtirilgan sanalarda o'rtoqlik uchrashuvlarida qatnashishi uchun, shu kunlarga rejalashtirilgan rasmiy uchrashuvlarga qo'llaniladigan direktivalarga muvofiq ozod qilinishi zarur.

**1.6.** Klublar va manfaatdor Assotsiatsiyalar ozod etilishning yanada uzaytirilgan muddatlari haqida kelishishlari mumkin.

**1.7.** Ushbu modda shartlari bo'yicha Milliy Assotsiatsiyadan chaqiruv olgan futbolchilar o'zlari chaqirilgan uchrashuv yakunlanganidan keyin 24 soatdan kechikmay klublari bilan tuzilgan shartnoma shartlarini bajarish uchun qaytishlari lozim. Agar uchrashuv boshqa konfederatsiyada (futbolchi klubi ro'yxatga olingan konfederatsiyada emas) o'tkaziladigan bo'lsa, bu davr 48 soatgacha uzaytirilishi mumkin. Klublar futbolchining jo'nash va qaytish sanalari haqida uchrashuvdan 10 kun avval yozma ravishda xabardor qilinishi kerak. Assotsiatsiyalar futbolchilar uchrashuvdan keyin o'z klublariga o'z vaqtida qaytib borishlariga ishonch hosil qilishlari kerak.

**1.8.** Agar futbolchi o'z klubidagi majburiyatlarini bajarish uchun ushbu moddada ko'rsatilgan muddatning eng oxirgi muhlatigacha qaytib kelmasa, Assotsiatsiya futbolchini keyingi yig'inga chaqirganida ozod qilish muddatini quyidagi davrlargacha qisqartirishi mumkin:

- a) o'rtoqlik uchrashuvi uchun: 24 soatgacha;
- b) saralash uchrashuvi uchun: 3 kungacha;
- c) xalqaro turnirning final bosqichi uchun: 10 kungacha.

**1.9.** Agar Assotsiatsiya ushbu qoidalarni muntazam ravishda buzayotgan bo'lsa, Futbolchilar maqomi bo'yicha FIFA qo'mitasi o'z tarkibiga kiritilgan, lekin quyidagilar bilan cheklanmagan tegishli sanksiyalarni qo'llashi mumkin:

- jarimalar;
- futbolchilarni ozod qilish muddatlarini qisqartirish;
- keyingi uchrashuvgacha futbolchining chaqirilishini taqiqlash.

## **2-bob. Moliyaviy qoidalar va sug'urta tartibi**

**2.1.** Ushbu ilovaning tegishli qoidalariga ko'ra, futbolchilarni qo'yib yuborayotgan klublar biron-bir kompensatsiya uchun huquqqa ega bo'lmaydilar.

**2.2.** Futbolchini chaqirayotgan Assotsiatsiya futbolchining yetib kelishi va qaytishi bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z zimmasiga olishi zarur.

**2.3.** Futbolchi ro'yxatdan o'tkazilgan klub ozod etishning butun davri mobaynida uning kasallanishi va baxtsiz voqeaga duch kelishi bo'yicha sug'urtalanishi uchun javobgar bo'ladi. Sug'urta futbolchi o'zi chaqirilgan xalqaro uchrashuvlarda olgan barcha jarohatlariga ham taalluqli hisoblanadi.

**2.4.** Agar futbol uchrashuvida qatnashayotgan professional futbolchi "A" terma jamoa safiga chaqirilgan davrda baxtsiz hodisa tufayli jarohatlanib, ushbu jarohat sababli vaqtincha ishga layoqatsiz bo'lib qolsa, shu futbolchi ro'yxatdan o'tgan klub FIFA tomonidan sug'urtalanadi.

Bunday sug'urta shartlari, shu jumladan, xarajatlarni qoplash bo'yicha tartibotlar "Klublarni himoya qilish dasturi" texnik byulletenida bayon etilgan.

## **3-bob. Futbolchilarni chaqirish tartibi**

**3.1.** Umumiy qoidaga ko'ra, klubda ro'yxatdan o'tkazilgan har bir futbolchi milliy mansubligiga ko'ra o'z mamlakati terma jamoalarida ishtirok etish uchun milliy Assotsiatsiyasi chaqiruviga tasdiqlovchi javob berishi lozim.

**3.2.** Futbolchini chaqirishni istagan Assotsiatsiya uni rejalashtirilgan uchrashuv haqida kamida 15 kun avval yozma xabardor qilishi kerak. Futbolchining klubi ham xuddi shu vaqtda yozma ravishda xabardor qilinishi lozim. Klub keyingi olti kun mobaynida futbolchini qo'yib yuborishini tasdiqlashi kerak.

**3.3.** Chet elda o'ynayotgan futbolchini terma jamoa uchrashuviga qo'yib yuborilishi bo'yicha FIFAdan yordam so'rayotgan Assotsiatsiyalar bu ishni faqat quyidagi qoidalarga rioya qilgandagina amalga oshirishlari mumkin:

a) futbolchi ro'yxatdan o'tkazilgan Assotsiatsiyaga avvalroq murojaat qilinib, rad javobi olinganda;

b) futbolchi chaqirilgan uchrashuvdan kamida besh kun avval FIFAgga murojaat jo'natilganda.

#### **4-bob. Jarohatlangan futbolchilar**

Jarohati yoki xastaligi tufayli Assotsiatsiya chaqiruvini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan futbolchilar, agar Assotsiatsiya talab qilsa, ushbu Assotsiatsiyasining istalgan shifokori tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tishlari kerak. Agar futbolchi xohlasa, tibbiy ko'rik u ro'yxatdan o'tkazilgan Assotsiatsiya hududida o'tkazilishi mumkin.

#### **5-bob. Klubda ishtirok etishning taqiqlanishi**

Assotsiatsiya tomonidan terma jamoalarning birida ishtirok etish uchun chaqirilgan futbolchi, buning aksi o'laroq tegishli Assotsiatsiya bilan kelishmasa, ushbu ilovada bayon etilgan qoidalarga muvofiq, ozod etilgan butun davr mobaynida o'zi ro'yxatdan o'tgan klub uchun o'ynashiga yo'l qo'yilmaydi. Undan tashqari, agar ushbu futbolchi biror sababga ko'ra Assotsiatsiya chaqiruviga javob berishni istamagan yoki rozi bo'lib javob bera olmagan bo'lsa, klub uchun o'ynashiga qo'yilgan bu taqiq 5 kungacha uzaytirilishi mumkin.

#### **6-bob. Intizomiy choralar**

**6.1.** Ushbu ilova bilan belgilangan har qanday qoidaning buzilishi intizomiy sanksiyalar qo'llanishiga olib kelishi mumkin.

**6.2.** Agar klub, ushbu ilovaning barcha normalariga qaramasdan, futbolchini qo'yib yuborishni rad etsa yoki bu xaqdagi iltimosga javob bermayotgan bo'lsa, Futbolchilar maqomi bo'yicha FIFA qo'mitasi tasarrufida ushbu klub bo'lgan Assotsiatsiyadan futbolchi ishtirok etgan uchrashuvlar haqida ma'lumot berilishini talab qilishi mumkin. Klub tomonidan to'plangan barcha ochkolar bekor qilinishi lozim. Kubok tizimi bo'yicha o'tkazilgan barcha uchrashuvlar ham, qanday hisobda yakunlaganidan qat'i nazar, raqib jamoa tomonidan yutilgan, deb tan olinishi zarur.

**6.3.** Agar futbolchi Assotsiatsiya chaqirganidan keyin o'z klubi bilan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun qaytib kelish muddatlarini bir martadan ko'p kechiktirsa, Futbolchilar maqomi bo'yicha FIFA Qo'mitasi klubning talabiga ko'ra futbolchi yoki Assotsiatsiyaga nisbatan intizomiy choralarni qo'llashi mumkin.

**2-ilova:****FUQAROLIGI SABABLI BITTADAN KO'P ASSOTSIATSIYADA ISHTIROK ETISH  
HUQUQIGA EGA FUTBOLCHILARNING ASSOTSIATSIYA JAMOALARIDA O'YNASH  
TARTIBI****1-bob. Fuqaroligi sababli bittadan ko'p Assotsiatsiyada ishtirok etish huquqiga  
ega futbolchilarning Assotsiatsiya jamoalarida o'ynash imkoniyati**

**1.1.** Tegishli fuqaroligi mavjud bo'lgani sababli bittadan ko'p Assotsiatsiyada ishtirok etish huquqiga ega futbolchi, fuqaroligi mavjudligidan tashqari, quyidagi shartlarga javob bersa, Xalqaro uchrashuvlarda ushbu Assotsiatsiyalarning biri uchun o'ynashi mumkin:

- a) tegishli Assotsiatsiya hududida tug'ilgan;
- b) uning biologik otasi yoki biologik onasi tegishli Assotsiatsiya hududida tug'ilgan;
- c) uning bobosi yoki buvisi tegishli Assotsiatsiya hududida tug'ilgan;
- d) u tegishli Assotsiatsiya hududida uzluksiz 2 yil davomida yashagan.

**1.2.** Ushbu moddaning 1-bandidan qat'i nazar, umumiy fuqarolikni da'vo qiluvchi Assotsiatsiyalar o'zaro bitim tuzib, uning shartlariga ko'ra, ushbu moddaning 1-bandi d bandini to'liq bekor qiladi yoki yanada uzoqroq muddat nazarda tutiladi. Bunday bitimlar FIFA bilan kelishilib, ma'qullanishi lozim.

**3-ilova:****FUTBOLCHILARNING BIR ASSOTSIATSIYADAN BOSHQASIGA O'TISHINI  
BOSHQARUVCHI MA'MURIY TARTIBOT****1-bob. Prinsiplar**

**1.1.** Bir Assotsiatsiya tasarrufidan bo'lgan klubning istalgan futbolchisi, agar XTS sobiq Assotsiatsiya tomonidan ushbu ilova shartlariga muvofiq boshqa Assotsiatsiyaga berilmagan bo'lsa, boshqa Assotsiatsiyaga tegishli klub uchun o'ynashiga yo'l qo'yilmaydi. Bu holatda FIFAgga taqdim etiladigan maxsus shakllar yoki shu kabi ta'riflanishga ega boshqa shakllardan foydalanish zarur.

**1.2.** Agar Professional futbolchilar haqida so'z yuritilsa, XTS beruvchi Assotsiatsiya futbolchi pasportining nusxasini ilova qilishi kerak.

**2-bob. Professional futbolchilarga XTSni berish**

**2.1.** Professional futbolchini ro'yxatdan o'tkazish haqidagi barcha arizalar yangi klub tomonidan yangi Assotsiatsiyaga ushbu Assotsiatsiya belgilagan ro'yxatdan o'tkazish davri ichida taqdim etilishi kerak. Barcha arizalar yangi klub va professional futbolchi o'rtasida tuzilgan shartnomaning nusxasi bilan taqdim etilishi lozim. XTS sobiq Assotsiatsiya tomonidan berilib, yangi Assotsiatsiya tomonidan

qabul qilinmaguniga qadar, professional futbolchi yangi klubi uchun rasmiy uchrashuvlarda o'ynash huquqiga ega bo'lmaydi.

**2.2.** Arizani qabul qilgan yangi Assotsiatsiya zudlik bilan sobiq Assotsiatsiyadan professional futbolchiga XTS berilishini so'rashi ("ITC request" jo'natishi) lozim. XTS uchun so'rov yuborishning eng kech muddati – yangi Assotsiatsiya tomonidan belgilangan ro'yxatdan o'tkazish davrining eng so'nggi kuni. So'rov jo'natmasdan turib XTS olgan Assotsiatsiya professional futbolchini o'z klublarining birida ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ega bo'lmaydi.

**2.3.** XTS uchun so'rov olgan sobiq Assotsiatsiya zudlik bilan sobiq klub va professional futbolchiga murojaat qilib, shartnoma muddati tugaganini, shartnomaning muddatidan avval bekor qilinishi o'zaro kelishuv bilan amalga oshirilgani hamda shartnoma yuzasidan ziddiyatlar yo'q ekanini tasdiqlatib olishi lozim.

**2.4.** Sobiq Assotsiatsiya XTS uchun so'rov olganidan keyin yetti kun davomida, shuningdek:

a) XTSni yangi Assotsiatsiyaga berishi yoki

b) Professional futbolchi va sobiq klub o'rtasida tuzilgan shartnoma yakunlanmagani yoki uni muddatidan avval bekor qilish yuzasidan o'zaro kelishilmagani sababli XTS berilishi mumkin emasligi haqida yangi Assotsiatsiyani xabardor qilishi zarur.

**2.5.** Agar yangi Assotsiatsiya XTSni berish yuzasidan bergan so'roviga shu so'rov taqdim etilgan kundan boshlab 30 kalendar kun davomida javob olmasa, zudlik bilan professional futbolchini yangi klubda vaqtincha ro'yxatdan o'tkazishi kerak ("Vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish"). Vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish XTS yuzasidan so'rov berilganidan 1 yil o'tib doimiyga o'zgartirilishi lozim. Agar sobiq Assotsiatsiya ushbu bir yillik muddat ichida XTS berish yuzasidan berilgan so'rovga javob bermagani bo'yicha asosli sabab taqdim etsa, Futbolchilar maqomi bo'yicha Qo'mita Vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazishni bekor qilishi mumkin.

**2.6.** Agar professional futbolchi va sobiq klub o'rtasida tuzilgan shartnoma bilan bog'liq kelishmovchiliklar yuzaga kelgan bo'lsa, sobiq Assotsiatsiya XTSni bermasligi kerak. Bunday holatda professional futbolchi sobiq va/yoki yangi klub 22-moddaga muvofiq FIFAgar ariza yuborish huquqiga ega bo'ladi. Keyinchalik FIFA XTSni berish yoki 60 kalendar kuni davomida sport sanksiyalarini qo'llash haqida qaror qabul qiladi. Barcha holatlarda sport sanksiyalari haqidagi qaror XTS berilishiga qadar qabul qilinishi lozim. XTSning berilishi shartnomaga rioya qilmaganligi uchun kompensatsiya to'lanishiga ta'sir qilmaydi. FIFA alohida holatlarda vaqtinchalik choralar haqidagi qarorni qabul qilishi mumkin.

**2.7.** Yangi Assotsiatsiya faks orqali jo'natilgan XTS asosida joriy mavsum yakuniga qadar o'ynash uchun vaqtinchalik imkoniyat taqdim etishi mumkin. Agar XTSning asl nusxasi ko'rsatilgan muddat tugaguniga qadar olinmasa, futbolchi ushbu klub safida o'ynash imkoniyati to'g'risidagi masala futbolchi foydasiga to'liq hal qilingan, deb hisoblash mumkin.

**2.8.** Assotsiatsiyalar futbolchi norasmiy uchrashuvlarda ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratilishi maqsadida XTS berilishini talab qilishga haqli emaslar.

**2.9.** Yuqorida bayon etilgan qoidalar va tartibotlar yangi klubga o'tish barobarida havaskorlik maqomini qabul qiluvchi professional futbolchilarga ham taalluqlidir.

### **3-bob. Havaskor futbolchilarga XTSni berish**

**3.1.** Havaskor futbolchini ro'yxatdan o'tkazish haqidagi barcha arizalar yangi klub tomonidan yangi Assotsiatsiyaga ushbu Assotsiatsiya belgilagan ro'yxatdan o'tkazish davri ichida taqdim etilishi kerak.

**3.2.** Arizani qabul qilgan yangi Assotsiatsiya zudlik bilan sobiq Assotsiatsiyadan ushbu futbolchiga XTS berilishini so'rashi (XTSga so'rov jo'natishi) lozim.

**3.3.** Sobiq Assotsiatsiya XTS uchun so'rov olgan kundan boshlab yetti kun davomida yangi Assotsiatsiyaga XTSni berishi kerak.

**3.4.** Agar yangi Assotsiatsiya XTSni berish yuzasidan bergan so'roviga shu so'rov taqdim etilgan kundan boshlab 30 kalendar kun davomida javob olmasa, zudlik bilan havaskor futbolchini yangi klubda vaqtincha ro'yxatdan o'tkazishi kerak ("Vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish"). Vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish XTS yuzasidan so'rov berilganidan 1 yil o'tib doimiyga o'zgartirilishi lozim. Agar sobiq Assotsiatsiya ushbu bir yil muddat ichida XTS berish yuzasidan berilgan so'rovga javob bermagani bo'yicha asosli sabab taqdim etsa, Futbolchilar maqomi bo'yicha qo'mita vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazishni bekor qilishi mumkin.

**3.5.** Yuqorida bayon etilgan qoidalar va tartibotlar yangi klubga o'tish barobarida professional futbolchi maqomini qabul qiluvchi havaskor futbolchilarga ham taalluqlidir.

### **4-bob. Futbolchilar ijarasi**

**4.1.** Yuqorida sanab o'tilgan qoidalar bir klubdan (bir Assotsiatsiyaga tegishli bo'lgan) boshqa klubga (boshqa Assotsiatsiyaga tegishli bo'lgan) ijara asosida o'tayotgan professional futbolchilarga ham taalluqlidir.

**4.2.** Ijara shartnomasining shartlari XTSga beriladigan so'rovga ilova qilinishi lozim.

**4.3.** Ijara muddati yakunlanganidan so'ng XTS futbolchini ijaraga bergan klubning Assotsiatsiyaga talabga binoan qaytarilishi zarur.

#### **4-ilova:**

### **MASHG'ULOT KOMPENSATSIYASINI TO'LASH TARTIBI**

#### **1-bob. Maqsad**

**1.1.** Futbolchini o'qitish va uning mashg'ulotlarda qatnashishi, odatda 12 dan 23 yoshgacha bo'lgan davrda amalga oshiriladi. Mashg'ulot kompensatsiyasi, umumiy qoidaga ko'ra, 23 yoshgacha to'lanishi kerak. Bunda futbolchi 21 yoshga to'lguniga qadar mashg'ulot davom ettirgani hamda 21 yoshgacha mashg'ulotlar to'xtatilgani borasida yaqqol dalillar bo'lmasligi inobatga olinadi. Agar mashg'ulotlar futbolchi 21 yoshga to'lgunicha to'xtatilgan bo'lsa, kompensatsiya futbolchi 23 yoshga to'lgan mavsumning oxirigacha to'lanadi. Lekin kompensatsiya summasini hisoblashda futbolchining 12 yoshdan boshlab mashg'ulotlarni qaysi vaqtgacha to'xtatganligi aniqlanishi va shu davr e'tiborga olinishi kerak.

**1.2.** Mashg'ulot kompensatsiyasini to'lash majburiyati shartnoma shartlari buzilgani uchun to'lanadigan boshqa kompensatsiyalar bo'yicha majburiyatlarga ta'sir qilmaydi.

## **2-bob. Mashg'ulot kompensatsiyalarini to'lash**

**2.1.** Futbolchini tayyorlash uchun kompensatsiya mazkur reglamentda nazarda tutilgan holatlar bo'yicha futbol klubiga/akademiyaga/maktabga quyidagi holatlarda to'lab beriladi:

- futbolchi 23 yoshga to'lgan mavsumning oxiriga qadar;
- professional futbol klubi bilan o'zining ilk mehnat shartnomasini imzolaganda;
- professional futbolchining bir futbol klubidan boshqa futbol klubiga o'tgan vaqtida (transfer);
- agar futbolchi professional futbolchi sifatida ilk marta ro'yxatdan o'tkazilsa;
- agar futbolchi bir assotsiatsiyasi jamoasidan shu assotsiatsiyasidagi boshqa jamoaga o'tishda ikkinchi va undan keyingi professional shartnomasini imzolasa, u holda yangi klub futbolchining sobiq klubiga faqatgina shu klub safidagi mashg'ulotlari uchun kompensatsiya to'lab beradi;
- agar professional futbolchi bir Assotsiatsiya klubidan boshqa Assotsiatsiya klubiga birinchi bor o'tadigan bo'lsa (shartnomaning amal qilish muddati davomida yoki shartnomaning amal qilish muddati yakunlanganida).

**2.2.** Mazkur Reglamentga asosan mashg'ulot kompensatsiya puli olish huquqiga faqatgina futbolchini tarbiyalash jarayonida ishtirok etgan hamda futbolchi pasportiga kiritilgan futbol klubi/akademiya/maktabgina egadir

**2.3.** Mashg'ulot kompensatsiyalari quyidagi holatlarda to'lanmaydi:

- a) agar sobiq klub futbolchi bilan tuzilgan shartnomani qonuniy asoslarsiz bekor qilsa (avvalgi klub huquqlariga zarar yetkazmasdan) yoki
- b) agar futbolchi havaskor klubiga o'tsa, yoki
- c) agar boshqa klubga o'tish natijasida professional futbolchi yana havaskor maqomini olsa.

**2.4.** Professional yoki yarim professional, shuningdek, ayollar professional klubi bilan ilk mehnat shartnomasi imzolayotgan 23 yoshga to'lmagan va bir nechta klubda tahsil olgan futbolchi uchun uning yangi klubi mazkur futbolchini 12 yoshdan 21 yoshgacha tarbiyalagan klub/akademiya/maktablarga mashg'ulot kompensatsiyasi to'lash majburiyatini oladi. Bunda mashg'ulot kompensatsiyasi miqdori shu moddaning 2-bandiga muvofiq belgilanadi va futbolchi o'tayotgan tegishli professional futbol klubning hamda kompensatsiyaga da'vogarlik qilayotgan klub/akademiya/maktabning toifasiga qarab, mazkur Reglamentning 4-ilovasida belgilangan koeffitsientga ko'paytiriladi.

**2.5.** Professional hisoblangan futbol klubi litsenziyalash talablarini bajara olmay qolgan taqdirda ham uning mehnat shartnomalari amalda bo'lgan futbolchilari uchun shu futbolchilarning sobiq klublariga to'lab berilishi kerak bo'lgan kompensatsiya majburiyati o'zida qoladi. Bunday holatda kompensatsiya to'lab berish muddati futbolchi ro'yxatdan o'tkazilgan davrdan boshlab emas, balki yarim professional klublar o'rtasidagi musobaqa ishtirokchilari tasdiqlangan kundan e'tiboran o'lchanadi hamda hisoblash 1 koeffitsient bilan amalga oshiriladi.

**2.6.** Professional futbol klubi kompensatsiya miqdorining 50 foizini tegishli klub/akademiya/maktabga, qolgan 50 foiz summa esa shu moddaning 12-bandiga binoan tegishli futbolchilarni tarbiyalash va o'qitishda ishtirok etgan murabbiylar o'rtasida taqsimlanadi.

**2.7.** Tegishli to'lov mashg'ulot kompensatsiyasi bo'yicha birinchi klub tomonidan 30 kalendar kuni ichida futbolchi professional sifatida ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amalga oshiriladi.

**2.8.** Mashg'ulot kompensatsiyasining bazaviy hisoblash miqdori futbolchi klubda ro'yxatdan o'tgan yillar soniga qarab (agar bir yildan kam bo'lsa, proporsional ravishda hisoblanadi), har bir tahsil yili uchun quyidagi miqdorda hisoblanadi:

- a) 12-15 yoshga to'lgan kalendar yil uchun koeffitsientsiz 1 000 000 so'mdan;
- b) 16 yoshdan 21 yoshga to'lgan kalendar yil uchun: 3 000 000 so'm.

\*Har bir yil uchun kompensatsiya miqdori akademiya/maktabda tarbiyalanilgan chiqimlar hisobidan ushlab qolinadi.

**2.9.** Agar futbolchi bilan mehnat shartnomasi imzolagan klub o'sha o'yinchini tarbiyalashda ishtirok etgan klub ta'sischisi (ta'sischilaridan biri) bo'lsa yoki akademiya/maktab mazkur professional futbol klubi tomonidan shartnoma asosida moliyalashtirilsa, u holda klub va akademiya/maktab kelishuvida boshqa holat nazarda tutilmagan bo'lsa, yuqorida qayd etilgan klub mashg'ulot kompensatsiyasi to'lashga majbur bo'lmaydi.

**2.10.** Birinchi klub/akademiya/maktab va boshqa klub tomonidan o'z klubi/akademiya/maktabi sifatida ko'rsatilgan klub O'FA va O'zPFL talablari asosida litsenziyalash jarayonidan o'ta olmasa yoki O'FA tomonidan futbol akademiyalari/maktablarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini bajara olmasa-da,

mazkur Reglamentning 21-moddasi 1-2-bandlariga ko'ra kompensatsiya olishga haqli bo'ladi va boshqa miqdordagi kompensatsiyaga kelishib olishi mumkin.

**2.11.** Futbolchini ro'yxatdan o'tkazuvchi klub mashg'ulot kompensatsiyasini to'lash bo'yicha shartnoma hamda shu to'lovning amalga oshirilganini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilish orqaligina futbolchini ro'yxatdan o'tkaza oladi. Boshqa holatlarda futbolchini tayyorlagan klub/akademiya/maktab kompensatsiya to'lovi bo'yicha kompensatsiyani to'lab berish majburiyatini olgan professional futbol klubga mustaqil ravishda murojaat qilishi kerak.

**2.12.** Kompensatsiya olish huquqiga ega bo'lgan klub/akademiya/maktab futbolchi ro'yxatdan o'tkazilganidan keyingi 12 oy davomida kompensatsiya olish istagi bo'yicha murojaat qilmagan, futbolchi va klub/akademiya/maktab o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashning imkoni bo'lmagan, futbolchi pasportida aks etgan klub/akademiya/maktab o'z faoliyatini tugatgan yoki klub/akademiya/maktab boshqa sabablarga ko'ra to'lovni qabul qila olmaydigan holatda bo'lsa – mashg'ulot kompensatsiyasi professional futbol klub tarafidan O'FA hisob-raqamiga bolalar-o'smirlar futbolini rivojlantirish maqsadida o'tkazib beriladi.

**2.13.** Futbolchini 12 yoshidan boshlab (12 yoshga to'lgan kalendar yil) 21 yoshgacha (21 yoshga to'lgan kalendar yil) tarbiyalashda ishtirok etgan klub/akademiya/maktabning har bir murabbiyi mazkur futbolchi uchun to'lanadigan kompensatsiyaning umumiy miqdoridan moddiy yordam sifatida bir qismini olish huquqiga ega.

**2.14.** O'zPFL har yili 1 aprel sanasiga qadar o'z rasmiy saytida ilk professional shartnomasini imzolagani holda tashkilot ro'yxatidan o'tgan futbolchilar ro'yxatini taqdim etadi.

**2.15.** Har yil 31 noyabrga qadar kompensatsiya olish uchun da'vogar murabbiylar O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi bo'limiga belgilangan shakldagi ariza bilan murojaat qilishi kerak. Arizaga qo'shimcha ravishda murabbiyning futbolchini tayyorlagan yillarini asoslab beruvchi hujjat taqdim etilishi kerak. Hujjatlar ro'yxati va shaklini O'zPFL o'z rasmiy sahifasida e'lon qiladi. Murabbiylarning 30 noyabrga qadar jo'natilmagan arizalari ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

**2.16.** O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi bo'limi lozim holatlarda klub/akademiya/maktabdan qo'shimcha hujjatlarni so'rashga haqli.

**2.17.** O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi bo'limi moddiy yordam olish istagida bo'lgan murabbiylar arizalarini kelasi yilning 1 martiga qadar o'rganib chiqadi.

**2.18.** O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi bo'limi ushbu modda va uning 1-bandi asosida murabbiy foydasiga kompensatsiya to'lab berish yoki to'lab bermaslik borasida qaror qabul qiladi. O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi bo'limi tomonidan belgilangan kompensatsiyani olgan klub murabbiyga tegishli summani to'lab beradi.

**2.19.** Asoslantirilgan istisno holatlardagina O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi bo'limi murabbiy tomonidan berilgan arizani dedlayndan keyin ham ko'rib chiqishi mumkin. Mazkur holatda O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi bo'limiga mazkur murabbiy faoliyat olib borayotgan klub/akademiya/maktabdan futbolchining tayyorgarlik davri haqida xat taqdim qilinishi lozim.

**2.20.** Mazkur Reglamentning 20-moddasi 2-bandida va shu bobning 12-bandida ko'rsatib o'tilgan holatlar bo'yicha tegishli yilning 1 dekabriga qadar olinmagan mablag'lar O'FA hisobiga bolalar-o'smirlar futboli murabbiylarini qo'llab-quvvatlash grandlari uchun o'tkazib beriladi.

**2.21.** O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi bo'limi tomonidan chiqarilgan qarorga nisbatan arznoma murabbiy tomonidan Nizolarni hal qilish palatasiga qaror qabul qilingan kundan boshlab 7 kun ichida kiritilishi mumkin.

**2.22.** Professional klub va futbolchi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi ichki me'yoriy hujjatlarning qo'pol tarzda buzilishi orqali bekor qilinsa va bu holat Palata tomonidan uzrli sabab sifatida qayd etilsa, mazkur bobning 2-bandida ko'rsatib o'tilgan mashg'ulot kompensatsiyasi to'lab berilmaydi.

**2.23.** Professional futbol klub ichki kelishuv asosida futbolchi uchun to'lanadigan mashg'ulot kompensatsiyasidan to'liq yoki qisman voz kechishi mumkin.

### **3-bob. Mashg'ulot kompensatsiyalarini to'lash bo'yicha javobgarlik**

**3.1.** Futbolchini professional sifatida ilk bor ro'yxatdan o'tkazgan klub ro'yxatdan o'tkazganidan keyin 30 kalendar kuni mobaynida futbolchini avvalroq ro'yxatdan o'tkazgan har bir klub akademiya/maktabga (futbolchi pasportida karera tarixining ta'riflanishiga muvofiq) mashg'ulot kompensatsiyasini to'lashi kerak. Bu futbolchi 12 yoshga to'lgan mavsumdan boshlab hisoblanadigan mashg'ulotlar va uni tayyorlash uchun kompensatsiya hisoblanadi. To'lov summasi prorata asosida, futbolchi har bir klubdagi mashg'ulotlarda qatnashgan davrga mos ravishda hisoblanadi. Professional futbolchi boshqa klublarga o'tadigan bo'lsa, kompensatsiya faqat sobiq klubiga, ushbu klub tarkibida qatnashgan mashg'ulotlari uchun to'lanadi.

**3.2.** Har bir holatda ham mashg'ulot kompensatsiyalari to'lanishining eng kech muddati futbolchi yangi Assotsiatsiyadan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 30 kalendar kun hisoblanadi.

**3.3.** Agar Professional futbolchi va u mashg'ulotlarda qatnashgan klublar o'rtasida aloqa o'rnatishning imkoni bo'lmasa yoki futbolchi professional sifatida ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 18 oy davomida ushbu klublar o'zlari haqida xabar bermasalar, mashg'ulot kompensatsiyasi professional mashg'ulotlarda qatnashgan mamlakat (yoki mamlakatlar) Assotsiatsiyasi (Assotsiatsiyalari)ga

to'lanadi. Ushbu kompensatsiya tegishli milliy Assotsiatsiyaning o'smirlar futbolini rivojlantirish dasturiga kiritiladi.

#### **4-bob. Mashg'ulot chiqimlari**

**4.1.** Mashg'ulot va ta'lim bilan bog'liq chiqimlarni qoplash uchun zarur bo'lgan kompensatsiya miqdorini hisoblab chiqish uchun Assotsiatsiyalar o'z klublarini, futbolchi tayyorlash uchun har bir klub tomonidan investitsiyalar miqdoriga muvofiq ravishda, ko'pi bilan 4 toifaga ajratishi kerak. Har bir toifa uchun mashg'ulot chiqimlari belgilanib, futbolchi bir yil davomida mashg'ulotlarda qatnashishi uchun talab etiladigan summa bilan muvofiqlashtiriladi va bitta professional futbolchini tayyorlash uchun mashg'ulotlarda qatnashadigan futbolchilar sonining koeffitsenti hisoblangan "futbolchi omili"ning o'rtacha ko'rsatkichiga ko'paytiriladi.

**4.2.** Konfederatsiya tomonidan har bir toifa klublari uchun belgilangan mashg'ulot chiqimlari hamda har bir Assotsiatsiya uchun toifalar bo'yicha klublarning taqsimlanishi FIFA saytida ([www.FIFA.com](http://www.FIFA.com)) chop etiladi. Har yilning yakuniga ko'ra ularga tegishli o'zgartishlar kirtib boriladi.

#### **5-bob. Mashg'ulot kompensatsiyasini hisoblash**

**5.1.** Sobiq klubga to'lanishi kerak bo'lgan mashg'ulot kompensatsiyasini hisoblashdagi umumiy qoida – agar futbolchi yangi klubda mashg'ulotlarda qatnashgan bo'lsa, ushbu klubning chiqimlari ham inobatga olinishi lozim.

**5.2.** Mos ravishda, futbolchi professional sifatida ilk bor ro'yxatdan o'tkazilayotganda to'lanishi lozim bo'lgan mashg'ulot kompensatsiyasining summasini hisoblash futbolchi 12 yoshga to'lgan mavsumdan boshlab 21 yoshga to'lgan mavsumgacha davr oralig'ida mashg'ulotlarda qatnashgan yillarga ko'paytirilgan mashg'ulot chiqimlarini inobatga olgan holda bajariladi. Keyinchalik, futbolchi bir klubdan boshqa klubga o'tishlarida mashg'ulot kompensatsiyasi futbolchi sobiq klubida mashg'ulotlarda qatnashgan yillar soniga ko'paytirilgan yangi klubning mashg'ulot chiqimlari asosida hisoblanadi.

**5.3.** Juda yosh futbolchilar uchun haddan tashqari yuqori mashg'ulot kompensatsiyasi belgilanishini oldini olish uchun 12 dan 15 yoshgacha vaqt oralig'idagi mavsumlar (ya'ni jami to'rt mavsum) uchun mashg'ulotlar va ta'lim bilan bog'liq chiqimlar 6-ilovaning 3a-bandida ko'rsatilganidek hisoblanadi.

**5.4.** Bahsli vaziyatlarni hal qilish bo'yicha Palata mashg'ulot kompensatsiyasining summasi bo'yicha nizolarni ko'rib chiqishi va ushbu summani, agar summa ko'rilayotgan masala bo'yicha yaqqol muvofiq bo'lmasa, oqilona chegaralarda tartibga solishi mumkin.

#### **5-ilova:**

## BIRDAMLIK MEXANIZMI TO'LOVINI ANIQLASH TARTIBI

### 1-bob. Birdamlik tovoni (kontributsiya)

Agar professional futbolchi shartnoma amal qilayotgan davrda bir klubdan/akademiyadan/maktabdan boshqa klubga o'tayotgan bo'lsa, sobiq klubga to'langan barcha kompensatsiyalarning (mashg'ulot kompensatsiyalari bundan mustasno) 5% yangi klub tomonidan futbolchini tayyorlashda ishtirok etgan klublar o'rtasida birdamlik kontributsiyasi sifatida taqsimlanadi. Birdamlik kontributsiyasi futbolchi 12 dan 23 yoshgacha bo'lgan davr mobaynida ushbu klub safida mashg'ulotlarda qatnashgan yillar (agar bir yildan kam bo'lsa, prorata asosida hisoblangan) sonini aks ettiradi:

- yoshi 12 ga to'lgan mavsum: 5% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,25%)
- yoshi 13 ga to'lgan mavsum: 5% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,25%)
- yoshi 14 ga to'lgan mavsum: 5% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,25%)
- yoshi 15 ga to'lgan mavsum: 5% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,25%)
- yoshi 16 ga to'lgan mavsum: 10% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,5%)
- yoshi 17 ga to'lgan mavsum: 10% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,5%)
- yoshi 18 ga to'lgan mavsum: 10% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,5%)
- yoshi 19 ga to'lgan mavsum: 10% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,5%)
- yoshi 20 ga to'lgan mavsum: 10% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,5%)
- yoshi 21 ga to'lgan mavsum: 10% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,5%)
- yoshi 22 ga to'lgan mavsum: 10% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,5%)
- yoshi 23 ga to'lgan mavsum: 10% (ya'ni kompensatsiyaning umumiy summasidan 0,5%).

### 2-bob. To'lov tartiboti

**2.1.** Yangi klub birdamlik kontributsiyasini mashg'ulot klublari akademiya/maktablarga futbolchi ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng 30 kalendar

kunidan kechiktirmay, qo'shimcha to'lovlar bajariladigan bo'lsa, ushbu to'lovlar sanasidan keyin 30 kalendar kun davomida to'lashi lozim.

**2.2.** Yangi klub kontributsiya summasini hisoblash va uni futbolchi pasportidagi karera tarixiga muvofiq tarzda taqsimlanishi uchun javobgar hisoblanadi. Zarurat tug'ilganda, futbolchi bu majburiyatlar bajarilishida yangi klubiga ko'maklashishi kerak.

**2.3.** Agar professional futbolchi va u mashg'ulotlarda qatnashgan klublar o'rtasidagi kelishuv boshqa klubga o'tganidan keyin 18 oy davomida amalga oshirilmasa, birdamlik kontributsiyasi professional futbolchi mashg'ulotlarda qatnashgan mamlakat (yoki mamlakatlar) Assotsiatsiyasi (Assotsiatsiyalari)ga o'tkazib beriladi. Ushbu summa tegishli milliy Assotsiatsiyalarning o'smirlar futbolini rivojlantirish dasturiga kiritiladi.

**2.4.** Futbolchi bilan birinchi shartnoma imzolagan klub birdamlik to'lovini quyidagi tartibda amalga oshiradi:

a) agarda futbolchini tarbiyalashda ishtirok etgan va futbolchi pasportida aks etgan klub/akademiya/maktab budjet tashkiloti hisoblansa, birdamlik to'lovidan kelgan barcha mablag' shu tashkilot infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltiriladi;

b) agarda futbolchini tarbiyalashda ishtirok etgan va futbolchi pasportida aks etgan klub/akademiya/maktab budjet tashkiloti bo'lmasa, birdamlik to'lovidan kelgan mablag' quyidagicha yo'naltiriladi:

- mablag'ning 50 foizi shu tashkilot infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltiriladi;
- mablag'ning qolgan 50 foizi shu tashkilotning futbolchini tarbiyalashda ishtirok etgan murabbiylari o'rtasida taqsimlanadi.

**2.5.** Futbolchini 12 yoshdan 23 yoshgacha tarbiyalashda ishtirok etgan har bir klub shu futbolchi uchun birdamlik to'lovini olishga haqli.

**2.6.** Har bir klub/akademiya/maktab o'z futbolchisi professional klub qaydnomasiga kirgan vaqtdan boshlab 4 oy ichida O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organiga o'rnatilgan tartibdagi ariza berib, birdamlik to'lovining bir qismini olishga haqli. O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organi mazkur holat bo'yicha futbolchini tayyorlagan klub/akademiya/maktab va boshqa tegishli shaxslardan lozim ko'rilgan hujjatlarni so'rashga haqli.

**2.7.** O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organi birdamlik to'lovi bo'yicha klublar arizasini 31 dekabrga qadar ko'rib chiqadi. Belgilangan vaqtdan kechikib taqdim etilgan arizalar ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

**2.8.** O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organi birdamlik to'lovi bo'yicha murabbiylar arizasini 31 dekabrga qadar ko'rib chiqadi. Belgilangan vaqtdan kechikib taqdim etilgan arizalar ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

**2.9.** Mazkur bobning 5 va 8-bandlarida ko'rsatib o'tilgan holatlar bo'yicha to'lab berilmagan mablag' (ularning to'liq yoki bir qismi) bolalar-o'smirlar futbolini rivojlantirish maqsadida O'FA hisob-raqamiga yo'naltiriladi.

**2.10.** Mazkur bob to'lovlari bo'yicha O'zPFLning futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organi tomonidan chiqarilgan qarorlarga nisbatan arznomalar shu qaror klub yoki murabbiy tomonidan qabul qilinganidan keyingi 7 kun ichida nizolarni hal qilish Palatasiga oshirilishi mumkin.

**2.11.** FIFA Intizom qo'mitasi ushbu ilovada bayon etilgan qoidalarga rioya qilinmagan hollarda klublar va futbolchilarga nisbatan intizomiy choralar qo'llash huquqiga ega.

## **6-ilova:**

### **O'ZBEKISTON FUTBOL KLUBLARI UCHUN "FUTBOLCHILAR MAQOMI VA TRANSFERI BO'YICHA REGLAMENT"NING ALOHIDA QOIDALARI**

#### **1-bob. Ro'yxatdan o'tkazish davri**

**1.1.** Ro'yxatdan o'tkazish (transfer) davrlari:

- a) ro'yxatdan o'tkazishning birinchi davri (qishki) – dekabr oyining ikkinchi yarmidan mart oyining birinchi o'n kunligigacha;
- b) ro'yxatdan o'tkazishning ikkinchi davri (yozgi) – iyul oyi davomida;
- c) ro'yxatdan o'tkazish davrlarining aniq muddatlari O'zPFL tomonidan belgilanadi va e'lon qilinadi.

**1.2.** Havaskor futbolchi istalgan ro'yxatga o'tkazish davrida uning havaskor klub bilan kelishuvi muddati qanday bo'lishidan qat'i nazar, boshqa professional klubga o'tishi mumkin.

**1.3.** Klublar o'z strukturasiidagi akademiyasi/maktabi tarbiyalanuvchisini ro'yxatdan o'tkazish davridan boshqa istalgan vaqtda ham ro'yxatdan o'tkazishga haqli.

**1.4.** Legioner maqomida bo'lgan o'zbekistonlik futbolchi to'p surayotgan klub bankrot deb e'lon qilinsa yoki boshqa sabab bilan klub faoliyatini tugatgani uchun futbolchi erkin agent maqomini olsa, mazkur futbolchini ro'yxatdan o'tkazish davridan boshqa davrda ham ro'yxatdan o'tkazish mumkin.

#### **2-bob. Futbol klublarining toifalari**

**2.1.** Futbol klublari uch toifaga ajratiladi:

- professional futbol klublari;
- yarim professional futbol klublari;
- havaskor futbol klublari.

**2.2.** Endilikda:

- Birinchi toifa: O'FA va O'zPFL litsenziyalash talablaridan o'tgan futbol klublari;
- Ikkinchi toifa: O'zPFL musobaqalarida qatnashuvchi, ammo O'FA va O'zPFL litsenziyalash talablaridan o'ta olmagan;

- Uchinchi toifa: havaskor futbol klublari.

**2.3.** Futbolchi istalgan toifadagi futbol klubidan o'tayotganida mashg'ulot kompensatsiyasi quyidagi koeffitsient bo'yicha hisoblanadi:

- birinchi toifadagi klubga 2 koeffitsient qo'llaniladi (agar futbolchining birinchi klubi O'FA va O'zPFL litsenziyalash talablarini bajarmagan bo'lsa, unga 1 koeffitsient qo'llaniladi; agar futbolchining birinchi klubi havaskor klub bo'lsa, unga mashg'ulot kompensatsiyasi to'lanmaydi);
- ikkinchi toifadagi klubga 1 koeffitsient qo'llaniladi (agar futbolchining birinchi klubi havaskor klub bo'lsa, unga mashg'ulot kompensatsiyasi to'lanmaydi);
- uchinchi toifadagi havaskor klubga mashg'ulot kompensatsiyasi to'lanmaydi.

Ayollar o'rtasidagi musobaqalarda ishtirok etuvchi futbolchiga mashg'ulot kompensatsiyasini hisoblashda barcha holatlarda 0,25 koeffitsient qo'llaniladi.

Mashg'ulot kompensatsiya koeffitsienti quyidagi jadval asosida tartibga solinadi:

Klub nomi	1-toifa	2-toifa	3-toifa
	Professional FK	Yarim profess. FK	Havaskor FK
1 Professional FK	2	1	0
2 Yarim profess. FK	1	1	0
3 Havaskor FK	0	0	0



Jadvalga izoh: 1, 2, 3-qatorlarda futbolchi ketayotgan klub toifasi ko'rsatilgan. 1, 2, 3-ustunlarda futbolchi o'tayotgan klub toifasi ko'rsatilgan.

**2.4.** 8 000 000 so'm – bir yillik mashg'ulot kompensatsiya hajmi.

**2.5.** Futbolchi uchun mashg'ulot kompensatsiyasining bir oylik miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori ko'rinishidan olinadi.

### **3-bob. Futbol akademiyalari/maktablarining toifalari**

**3.1.** Futbol akademiyalari/maktablarining maqomi va ularga qo'llaniladigan koeffitsientlar:

- 3 yulduzli futbol akademiyasi (4 koeffitsient);
- 2 yulduzli futbol akademiyasi (3 koeffitsient);
- 1 yulduzli futbol akademiyasi (2 koeffitsient);
- futbol yoki sport maktabi (1 koeffitsient).

**3.2.** Futbol akademiyasi/maktabi maqomi O'FA tomonidan o'tkazilgan attestatsiya jarayoni xulosasiga ko'ra taqdim etiladi. Bunda akademiya/maktab

uchun qo'llaniladigan me'yorlar O'FA tarafidan tasdiqlangan futbol akademiya/maktablarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha nizomda ko'rsatilgan.

**3.3.** Futbol akademiya/maktablari toifalari bo'yicha kompensatsiya miqdorini hisoblashda quyidagi koeffitsient qo'llaniladi:

Akademiya/maktab toifasi	1-toifa FK	2-toifa FK	3-toifa FK
3 yulduzli akademiya	4	3	0
2 yulduzli akademiya	3	2	0
1 yulduzli akademiya	2	1	0
Futbol/sport maktab	0	0	0



Jadvalga izoh: 2, 3, 4-qatorlarda futbolchi ketayotgan akademiya/maktab toifasi ko'rsatilgan (5-qatordagi futbol/sport maktab shu bobning 3.5-bandi bilan tartibga solinadi). 2, 3, 4-ustunlarda futbolchi o'tayotgan klub toifasi ko'rsatilgan.

**3.4.** 3 000 000 so'm – futbol akademiya/maktabda bir yillik tayyorgarlik uchun koeffitsientsiz.

**3.5.** 1 000 000 so'm – O'FA attestatsiyasidan o'tmagan futbol/sport maktabi tarbiyalanuvchisi uchun har qanday holatda yillik tayyorgarlik uchun koeffitsientsiz.

#### **4-bob. Ro'yxatdan o'tkazishning boshqa qoidalari**

**4.1.** Futbolchi pasporti klubda saqlanadi. Ariza hujjatlarini rasmiylashtirishda futbolchi pasportining nusxasi O'zPFLga taqdim etiladi. Futbolchi bir klubdan boshqa klubga o'tayotganida tegishli yozuv qayd etilgan pasport futbolchi bilan birga beriladi;

**4.2.** Futbolchi bir vaqtning o'zida futzal/futbol jamoasi a'zosi sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydi. Ayol futbolchilar bundan mustasno.

**4.3.** 16 yoshga to'lib ulgurmagani futbolchi O'zPFL ro'yxatidan o'ta olmaydi (istisno holatlar mazkur Reglamentning 18-modda 3-bandida ko'rsatib o'tilgan). Mavsum davomida 16 yoshga to'ladigan futbolchi O'zPFL ro'yxatidan o'tishi mumkin. Uning litsenziyasi futbolchi 16 yoshga to'lganidan keyingina klubga taqdim etiladi;

**4.4.** Futbolchilar, murabbiylar va klubning mehnat shartnomasiga ega boshqa futbol mutaxassisleri bilan tuzilgan shartnomalar bilan bog'liq nizoli vaziyatlar Futbolchilar maqomi va o'tishi bo'yicha qo'mita qoshidagi Nizolarni hal qilish palatasida ko'rib chiqiladi. Mazkur talabni chetlab o'tgani holda, fuqarolik sudlariga murojaat qilgan klub vakilining ishi Palata tomonidan rad etiladi. Shuningdek, ularga nisbatan FIFA reglamentida belgilangani bo'yicha sanksiyalar qo'llaniladi.

**4.5.** Agar futbolchi boshqa jamoaga ijaraga berilayotgan bo'lsa-yu, ammo ijaraga berayotgan tomon futbolchini kelishuvdan oldin qaytarib olishni istasa, u holda futbolchini ijaraga olgan klub kelishuv summasining yarmini to'lab berishi kerak. Bunda futbolchini qaytarib olish faqatgina transfer oynasi davrida amalga oshiriladi. Agar ijaraga olayotgan tomon ijara summasini kelishilgan vaqtda to'lab bermasa, futbol klubiga nisbatan sanksiya qo'llaniladi.

**4.6.** Futbolchilar bilan shartnomalarni shu shartnomalarda keltirib o'tilgan shartlarsiz bekor qilish man etiladi. Futbol klublari FIFAning minimal talablarga javob beruvchi O'zPFL tomonidan taqdim etilgan namunaviy shartnomalardan foydalanishi shart. Bunda klublar shartnomada ko'rsatilmagan, biroq mazkur Reglamentga zid bo'lmagan shartlarni qo'shish imkoniyatiga ega.

**4.7.** Agar biror futbolchi amaldagi klubi bilan shartnomasi bor bo'la turib, boshqa klubga o'tmoqchi bo'lsa:

- ikki klub o'rtasida transfer bo'lishi;
- da'vogar tomon futbolchining shartnomasida ko'rsatilgan tovon pulini to'lab berishi;
- agar klub rozi bo'lsa, futbolchi shu klub bilan shartnoma muddati mobaynida amortizatsiyalangan summani mazkur jamoaga kompensatsiya uchun to'lab, boshqa klubga o'tib ketishi mumkin (17-moddaning, 1-bandi).

**4.8.** 2020 yilning 1 yanvaridan e'tiboran rag'batlantirish (ko'tarma) pullari bor shartnomalar O'zPFL tomonidan ro'yxatga olish uchun qabul qilinmaydi. Bunda klublar o'z futbolchilariga chempionatni kuchli oltilik o'rinlaridan birida yakunlash, biror boshqa sovrin yoki xalqaro maydon uchun yo'llanmani qo'lga kiritish bo'yicha bonuslar taklif qilishi mumkin.

### 7-ilova:

#### O'FANING METODIK KO'RSATMALARI

Mazkur metodik ko'rsatma, O'FA hududiy bo'linmalari tomonidan futbolchilar pasportlarini yuritish va voyaga yetmagan futbolchilarni O'FA va O'zPFL tomonidan o'tkaziladigan musobaqalarda qatnashuvchilarning qatorida ilk marta ro'yxatdan o'tkazilinishining yagona tartibini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

O'FA hududiy assotsiatsiyalar uchun futbolchilarning pasportini, qolaversa ularning kelgusi faoliyati xronologiyasini yuritishda FIFA va O'FA futbolchilarning maqomi va o'tishi Relamentiga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida quyidagi qoidalarni ishlab chiqqan.

Futbolchi maqomi	O'FA HA tomonidan ilk marta ro'yxatga olinishi/FIFA Reglamenti assosida ilk marta	Futbolchini ro'yxattan o'tkazish uchun zarur hujjatlar	O'FA hududiy assotsiatsiyasining O'FAGA murojaat zaruriyati
------------------	---	--	---


	ro'yxatga olinishi/Xalqaro o'tish		
Futbolchi – 12 yoshgacha	HAdan ilk marta ro'yxatdan o'tkazilishi	Futbolchining HA tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi uning kelgusi futbolchilik faoliyati xronologiyasini tuzishda ma'lumotga ega bo'lish uchundir	
Futbolchi: <ul style="list-style-type: none"> <li>• 12- yoshda;</li> <li>• O'zbekiston fuqarosi;</li> <li>• O'zbekiston hududida tug'ilgan;</li> <li>• boshqa davlat assotsiatsiyalarida ro'yxatdan o'tmagan.</li> </ul>	HAdan ilk marta ro'yxatdan o'tkazilishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Pasport yoki tug'ilganligi haqida guvohnoma;</li> <li>• Ota-onasining pasporti;</li> <li>• Oxirgi 3 yil davomida tahsil olgan umumta'lim maktabidan ma'lumotnoma;</li> <li>• Akademiya/futbol maktabiga qabul kilingan sanasi ko'rsatilgan ma'lumotnoma;</li> <li>• Boshqa davlat assotsiatsiyasida ro'yxatdan o'tmaganligi va boshqa davlat fuqaroligi yo'qligi haqidagi ota-onasining arizasi (1-ilova);</li> <li>• Agarda futbolchi otaliqqa olingan bo'lsa, buni tasdiqlovchi hujjat.</li> </ul>	
Futbolchi: <ul style="list-style-type: none"> <li>• 12 yoshda;</li> <li>• O'zbekiston fuqarosi;</li> <li>• boshqa davlatda tug'ilgan/yoki yashagan;</li> <li>• boshqa davlat assotsiatsiyasida ruyxatdan o'tmagan.</li> </ul>	HAdan ilk marta ro'yxatdan o'tkazilishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Pasport yoki tug'ilganligi haqida guvohnoma;</li> <li>• Otasi yoki onasida O'zbekiston fuqaroligi mavjudligini tasdiqlovchi pasport;</li> <li>• Futbolchini boshqa davlatda vaqtinchalik yashagani haqida ma'lumot beruvchi hujjat;</li> <li>• Oxirgi 3 yilda tahsil olgan umumta'lim</li> </ul>	Futbolchi boshqa davlatda tug'ilganida/yas haganida, shu davlatning assotsiatsiyasida ruyxatdan o'tmagani haqida ma'lumot olish uchun HA tomonidan O'FAga murojaat.

		<p>maktabidan ma'lumotnoma;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Akademiya/futbol maktabiga qabul qilingan sanasi ko'rsatilgan ma'lumotnoma;</li> <li>• Boshqa davlat assotsiatsiyasida ro'yxattan o'tmaganligi va boshqa davlat fuqaroligi yo'qligi haqidagi ota-onasining arizasi (1-ilova);</li> <li>• Agarda futbolchi otaliqqa olingan bo'lsa, buni tasdiqlovchi hujjat;</li> <li>• Futbol maktabi/akademiyaga qabul qilish bo'yicha ota-onasining roziligi aks etgan hujjat.</li> </ul>	<p>HAda ruyxatdan o'tkazish mazkur ma'lumotni olgandan so'ng amalga oshiriladi.</p>
<p>Futbolchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• 12 yoshdan 18 yoshgacha oralig'ida;</li> <li>• O'zbekiston fuqaroligiga ega emas;</li> <li>• boshqa davlat assotsiatsiyalarida ro'yxatdan o'tmagan.</li> </ul>	<p>FIFA Reglamenti assosida ilk marotaba ro'yxatdan o'tkazilishi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'FA tomonidan ro'yxatga olinishning ma'qullanishi;</li> <li>• O'FA ning futbolchilarning maqomi va o'tishi (transfer) Reglamentining 19 bandiga asosan amalga oshiriluvchi jarayon.</li> </ul> <p><b>Ko'shimcha:</b> O'FA tomonidan ro'yxatga olinishning ma'qullanishi asosida ro'yxatdan o'tkazilgan futbolchining kelgusidagi professional klubga ro'yxatdan o'tkazilishi har safar O'FA tomonidan ro'yxatga olinishning ma'qullanishi orqali amalga oshiriladi</p>	
<p>Futbolchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• 12 yoshdan – 18 yoshgacha;</li> </ul>	<p>Xalqaro o'tish</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'FA tomonidan ro'yxatga olinishning ma'qullanishi;</li> </ul>	

<ul style="list-style-type: none"> <li>• Fuqaroligini ng mavjud yoki mavjud emasligidan qat'i nazar;</li> <li>• boshqa davlat assotsiatsiyasidan havaskor futbol klubiga; akademiya/futbol maktabiga o'tishi.</li> </ul>		<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'FAning futbolchilarning maqomi va o'tishi (transfer) Reglamentining 19 bandiga asosan amalga oshiriluvchi jarayon;</li> <li>• O'FA tomonidan ro'yxatga olinish ma'qullanganidan so'ng O'FA tomonidan XTS olish bo'yicha so'rov yuborilishi.</li> </ul> <p><b>Qo'shimcha:</b> O'FA tomonidan ro'yxatga olinishning ma'qullanishi asosida xalqaro o'tish sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan futbolchining kelgusidagi professional klubga ro'yxatdan o'tkazilishi har safar O'FA tomonidan ro'yxatga olinishning ma'qullanishi orqali amalga oshiriladi</p>	
<p>Futbolchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• 12 yoshdan – 18 yoshgacha;</li> <li>• Fuqaroligini ng mavjud yoki mavjud emasligidan qat'iy nazar;</li> <li>• Boshqa davlat assotsiatsiyasidan professional futbol klubga o'tayotganda.</li> </ul>	Xalqaro o'tish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• FIFAning futbolchilar maqomi va o'tishi Reglamentiga muvofiq tarzda bunday o'tishning FIFA futbolchilarning maqomi va o'tishi bo'yicha qo'mitasi qoshidagi qo'mita tomonidan ma'qullanishi;</li> <li>• Ro'yxatdan o'tkazish ma'qullanganidan so'ng O'FA tomonidan barcha zarur hujjatlar ilova qilingan holda XTS bo'yicha so'rov yuborish.</li> </ul>	
<p>Futbolchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• 18 yoshdan oshgan;</li> </ul>	Xalqaro o'tish	O'FA tomonidan barcha zarur hujjatlar ilova qilingan holda XTS bo'yicha so'rov yuborish.	

<ul style="list-style-type: none"> <li>• Boshqa davlat assotsiatsiyasidan o'tayotganda.</li> </ul>		
--	--	--

Ushbu metodik qo'llanma asosida futbol sub'ektlari (O'FAning hududiy bo'linmalari, akademiya/futbol maktablari, futbolchilar va ularning vakillari) o'rtasidagi munosabatlar quyidagi sxema bo'yicha tartibga solinadi.



Agarda boshqa holatlar FIFAning futbolchilar maqomi va o'tishi bo'yicha Reglamenti va mazkur ko'rsatmada aks etilmagan bo'lsa, o'z navbatida mazkur ko'rsatmada aks etgan barcha jarayonlarning bajarilishi birinchi instansiya bo'lmish Hududiy assotsiatsiyalarning majburiyati bo'lib hisoblanadi.

Mazkur ko'rsatmaning va O'FAning futbolchilarning maqomi va o'tishi bo'yicha Reglamentining 19-bandida aks etilgan jarayonlarning to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida mazkur ko'rsatmaga 2-ilovada qayd etilgan voyaga yetmagan futbolchilarni ruyxatga olinishi borasida ayrim vaziyatlar yuzasidan yo'riqnoma tasdiklanadi. Shu bilan birga shu vaziyatlarga aniqlik kiritish uchun talab etiladigan hujjatlar ro'yxati ko'rsatiladi.

Shu bilan bir qatorda O'FA voyaga yetmagan futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish va uning o'tishi bilan bog'liq har qanday murojaatni ko'rib chiqish vaqtida 2-ilovada ko'rsatilmagan qo'shimcha hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

**UZBEKISTAN**  
 PROFESSIONAL FOOTBALL  
 LEAGUE

## FUTBOLCHILARNING MAQOMI VA O'TISHI BO'YICHA REGLAMENT NORMALARINING BUZILISHI VA O'FA TARTIB-INTIZOM ORGANI TOMONIDAN QO'LLANILADIGAN SANKSIYALAR RO'YXATI

**1.** Futbolchining bir klubdan boshqa klubga o'tishi bo'yicha Reglament talablarini buzishi, shartnomasi bo'la turib, boshqa klub bilan kontrakt tuzishi:

- futbolchini 4 oydan 6 oygacha diskvalifikatsiya qilish.

**2.** 18 yoshga to'lgan va undan yosh futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini buzganlik uchun:

- ro'yxatdan o'tkazishni bekor qilish;
- klubga nisbatan moliyaviy jarima qo'llash.

**3.** Futbolchining bir klubdan boshqa klubga o'tishi bo'yicha Reglament talablarini buzgan, shartnomasi bor futbolchi bilan kontrakt tuzgan, amaldagi klubi bilan shartnomasi bor futbolchini uning klubini yozma ravishda ogohlantirilmay turib muzokaraga kirishgan, boshqa klub futbolchisini mashg'ulotlari va yig'inlariga qo'shgan klub uchun:

- klubga nisbatan moliyaviy jarima qo'llash;
- eng yaqin transfer oynasidagi harakatlarini cheklash.

**4.** Futbolchini ijaraga olayotgan klub tomonidan ijara shartnomasi shartlarining bajarilmasligi yoki shu futbolchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlarining bajarilmasligi sabab:

- klubga nisbatan 50 000 000 so'mgacha moliyaviy jarima qo'llash;
- yangi futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazishni taqiqlash yoki eng yaqin transfer oynasidagi harakatlarini cheklash.

**5.** Futbolchini tarbiyalaganlik uchun mashg'ulot kompensatsiyasi to'lash muddatiga amal qilmaslik:

- klubga nisbatan 500 000 000 so'mgacha moliyaviy jarima qo'llash;
- yangi futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazishni taqiqlash yoki eng yaqin transfer oynasidagi harakatlarini cheklash.

**6.** O'FAning tegishli qo'mitasi qarorini o'z vaqtida yoki umuman bajarmaganlik uchun:

- klubga nisbatan 500 000 000 so'mgacha moliyaviy jarima qo'llash.

**7.** Klub tomonidan mehnat shartnomasi shartlarining uzrli sababsiz buzilishi yoki futbolchini mehnat shartnomasini muddatidan avval buzishga undaganlik uchun:

- klubga nisbatan 500 000 000 so'mgacha moliyaviy jarima qo'llash;
- yangi futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazishni taqiqlash yoki eng yaqin transfer oynasidagi harakatlarini cheklash.

**8.** Klub tomonidan boshqa bir klubni yoki futbolchini mehnat shartnomasi shartlarining muddatidan avval buzishga undaganlik uchun:

- klubga nisbatan 500 000 000 so'mgacha moliyaviy jarima qo'llash;

- yangi futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazishni taqiqlash yoki eng yaqin transfer oynasidagi harakatlarini cheklash.

Cheklash muddati mehnat shartnomasi shartlari buzilgan kundan boshlanadi.

**9.** 28 yoshga to'lmagan va 28 yoshga to'lgan futbolchi tomonidan mehnat shartnomasi shartlarining uzrli sababsiz buzilishi va bu mehnat shartnomasining muddatidan avval bekor qilinishiga sabab bo'lsa:

- futbolchini 6 oygacha muddatga diskvalifikatsiya qilish.

**10.** Ushbu reglament qoidalarining futbolchi agenti tomonidan buzilishi, shuningdek, agentlar faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar qoidalarini buzganlik uchun:

- agentga nisbatan 500 000 000 so'mgacha jarima solish.

Sanksiyalar vaziyatga qarab kombinatsiya qilinishi mumkin.

Kiritilgan taqiqning muddatini hisoblash O'FAning tegishli qarori chiqarilgan sanadan boshlab hisoblanadi.

Moliyaviy jarimalar O'FAning tartib-intizomiy organi tomonidan qaror chiqarilgan sanadan boshlab 10 bank ish kuni ichida O'zPFLga to'lanishi lozim.

